

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 11-mart chorshanba №10(9595)

MAKTABLARDA OTA-ONALAR NAV BATCHILIGI TASHKIL ETILSA...

3-bet



**“GAP YEAR”
IMKONIYATMI?**

5-bet

**BOLA HUQUQLARINING
YUQORI KAFOLATI**

2-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Hayratga soladigan voqealar qatorida kitob va kitob o'qiydigan insonlarni ko'rish, eshitish zamonida yashayapmiz, afsuski!

Gulmira ORTIQOVA



O'quvchilar maktab va turli o'quv kurslari o'rtasida ovora bo'lib qolmoqda. Maktab o'qituvchilari esa belgilangan ish rejasidan chetga chiqa olmaydi. Natijada ayrim o'quvchilarning maktabga hamda o'qituvchi berayotgan bilimiga bo'lgan ishonchi asta-sekin kamayib bormoqda. Va yana sertifikat vasvasasi... Telefon ham maktab o'qituvchilari uchun katta muammo, o'qituvchilar o'quvchilar diqqatini to'play olmay xunob bo'lishayapti.

Shoira BOZOROVA

Huquqiy burchak

Bola huquqlarining yuqori kafolatlari

Bugungi kunda dunyoning barcha demokratik davlatlarida bola huquqlari masalasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Chunki har qanday jamiyatning kelajagi avvalo yoshlarga qanday imkoniyat yaratgani bilan belgilanadi. Zero, bolalar – jamiyatning eng nozik va shu bilan birga kelajakni belgilab beruvchi qatlamidir.

Shu nuqtayi nazardan davlatimizning yangilangan Konstitutsiyasiga bola huquqlarini mustahkamlovchi aniq moddalar kiritilgan bo'lib, ular nafaqat oila, balki davlat va jamiyatning ham bolaga bo'lgan g'amxo'rligi rasmiy kafolatidir. Avvalo, "bola", "bola huquqi" tushunchasiga e'tibor qaratsak. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonunida "bola" tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "Bola – 18 yoshga to'lgunga qadar bo'lgan shaxsdir", ya'ni 18 yoshga to'lmagan, voyaga yetmagan shaxslar bola hisoblanadi. Bola huquqi esa har bir bolaga tug'ilgan paytidan boshlab tegishli bo'lgan ajralmas huquq va erkinliklar majmuyidir va bu huquq bolalarning jismoniy, aqliy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan sog'lom rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni belgilab beradi. Boshqacha aytganda, bola huquqlari – bu bolani kamsitilishdan, zo'rvonlikdan himoya qiladigan, uning ta'lim olishi, tibbiy xizmatdan foydalanishi, o'z fikrini erkin bildirishiga imkon beradigan asosiy tamoyillardir.

Yangilangan Konstitutsiya bolalar huquqlarini himoya qilish va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda ilg'or huquqiy mexanizm yaratdi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning XIV bobi – "Oila, bolalar va yoshlar" bobining 44, 50, 77 va 78-moddalari bola huquqlari va ularning muhofazasiga oid zamonaviy tamoyillarni aniq belgilaydi.

Bosh Qomusimizning **44-moddasi** bolalar mehnatining bolaning sog'ligi, xavfsizligi, axloqi, aqliy va jismoniy rivojlanishiga zarar yetkazuvchi har qanday shakllarini qat'iyana taqiqlaydi. Bu, xususan, bolaning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan ishlarga ham taalluqli. Masalan, bolalarning og'ir jismoniy ishlar yoki soatlab ishlash majburi-

yati ularning maktabga borishi va bilim olish imkoniyatini cheklaydi. Bolalarni noqonuniy ishlarga jalb qilish ularning axloqiy va ruhiy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu modda esa bolalar mehnati bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni kamaytirish va yoshlarni xavfsiz, sog'lom muhitda tarbiyalashga xizmat qiladi. Germaniyada bu sohada "Yugendamt" muassasalarining alohida o'rni bor. Ushbu organ bola manfaatlarini ta'minlash, xavfli vaziyatlarda aralashish va profilaktik choralarni amalga oshirishga mas'uldir. Germaniya tajribasi shundan dalolat beradiki, aniq mas'ul organning mavjudligi bola huquqlari bilan bog'liq masalalarni tez va samarali hal etish imkonini beradi.

Konstitutsiyamizning **50-moddasi** esa har bir inson, jumladan har bir bola ta'lim olish huquqiga ega ekanligi qat'iy belgilangan bo'lib, davlat bu huquqning to'laqonli amalga oshirilishi uchun uzluksiz ta'lim tizimi va uning barcha shakllarining izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim davlat nazorati ostida olib boriladi va fuqarolarga bepul umumiy o'rta hamda boshlang'ich professional ta'lim olish kafolatlanadi. Bundan tashqari, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning manfaatlarini hisobga olgan holda inklyuziv ta'lim olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda bolalar uchun teng, xavfsiz, inklyuziv va barqaror rivojlanish muhitini yaratish davlatning strategik vazifasi sifatida belgilab qo'yildi. Xalqaro tajribalardan misol keltiradigan bo'lsak, Norvegiyada bolalar fikri asosida ta'limdagi muammolarga davlat darajasida chora ko'rilgan, Avstraliyada esa nogiron bolalar murojaatlarini alohida ko'rib chi-

qish tizimi yaratilib, inklyuziv ta'lim sifati sezilarli darajada yaxshilangan. O'zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasi aynan shu prinsiplarga mos keladi.

Konstitutsiyamizning **77-moddasi** ota-onalar va vasiylar majburiyati belgilangan. Ular farzandlarini voyaga yetguniga qadar to'laqonli parvarish qilish, ta'lim va ma'naviy tarbiya bilan ta'minlashga majbur. Bu modda faqat oilaviy majburiyatni belgilamay, balki uni konstitutsiyaviy majburiyatga aylantirdi. Masalan, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda hozir 9,8 milliondan ortiq bola yashamoqda. Ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini ta'minlash aniq huquqiy kafolatlarni talab qiladi. Shuningdek, 77-modda yetim va ota-onasi g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarning davlat va jamiyat tomonidan to'liq himoya qilinishini kafolatlaydi. Zamonaviy mehribonlik uylari, oilaviy turdagi uylar va xayriya fondlarining kengayishi ushbu moddaning amalda qanday tatbiq etilayotganini ko'rsatadi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning **78-moddasi** ham bola huquqlarini kafolatlaydi. Bu modda barcha ota-onalarning ijtimoiy maqomi, fuqarolik holati yoki naslidan qat'i nazar, tengligini ta'minlaydi. Bu prinsip iqtisodiy sharoitlari farq qiladigan hududlarda kamsitishning oldini olishda muhimdir. Tenglikdan tashqari, 78-modda davlatni bolaning jismoniy, aqliy va madaniy rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratishga majbur qiladi.

Masalan, maktabgacha ta'lim sohasidagi so'nggi islohotlar natijasida bolalarni bog'chalarga qamrab olish darajasi 2017-yilda 27 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yili qamrov 70 foizdan oshdi. Bu hukumatning bolalarni erta yoshdan rivojlantirishga bo'lgan faol yondashuvining yaqqol misoli. Bundan tashqari, onalik va otalik maqomini himoya qilish oilaga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosatni mustahkamlaydi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish esa bolalarni mustahkam vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shu bilan birga, 2025-yilning birinchi yarim yilida Bolalar ombudsmani

tomonidan 885 ta murojaat ko'rib chiqilgan va bu o'tgan yilga nisbatan 47 foiz ko'p. Bu o'sish Konstitutsiyamizning 78-moddasida belgilangan davlat majburiyatining amalda-gi ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilishda konstitutsiyamiz bilan bir qatorda Bolalar ombudsmanining ham o'rni beqiyos.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarim yilligida Bolalar ombudsmani tomonidan 885 ta murojaat ko'rib chiqilgani jamiyatimizda bolalar huquqlariga oid masalalarga e'tibor tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 20 ta murojaat(2,3 foiz) bevosita voyaga yetmaganlar tomonidan qilingani alohida e'tiborga loyiq. Bu holat bolalarning o'z huquqlarini anglayotgani va yordam so'rashdan cho'chmayotganini ko'rsatadi. Ma'lumotlarga ko'ra, internet orqali o'tkazilgan nazorat davomida 185 ta bola huquqlari buzilishi holati aniqlangan. Zo'rvonlikka oid 60 ta holat bo'yicha tegishli chora ko'rilgan. 16 ta jinoiy va 22 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan. Umuman olganda, mazkur statistika mamlakatda bolalar xavfsizligi va himoyasiga bo'lgan yondashuv izchil kuchayib borayotganini, rasmiy institutlar esa nafaqat nazorat, balki samarali aralashuv funksiyasini bajarayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar huquqlarining konstitutsiyaviy himoyasi endilikda shunchaki huquqiy me'yor emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy-investitsion mexanizm sifatida talqin qilinmoqda. Bu mexanizm orqali Bolalar ombudsmani bolalarning xavfsizligini nazorat qiladi, ularning murojaatlarini ko'rib chiqadi va huquqbuzarlik holatlariga munosabat bildiradi. Natijada, bolalarning huquqlari amalda himoyalana-di va jamiyatda ularning xavfsiz va barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Zero, huquqi e'zozlangan, qadri ulug'langan, jismoniy va ma'naviy barkamol tarbiya ko'rgan avlod – davlatning ertangi taraqqiyot omili, milliy rivojlanishning poydevoridir.

Jasmina TOHIROVA,
Jamoat xavfsizligi universiteti talabasi

Jarayon

Yuridik ta'lim tizimida o'zgarishlar qanday kechmoqda?

Bugun O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uni xalqaro standartlar va amaliy ehtiyojlarga moslashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mazkur sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Farmonda yuridik ta'lim tizimida nazariy bilimlar ustuvorligidan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan modelga o'tish, zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori malakali yuridik kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish, yurisprudensiya sohasida yetishib chiqayotgan kadrlarga keng imkoniyatlar yaratish nazarda tutiladi.

Farmonga ko'ra, 2027-2028-o'quv yilidan boshlab "Yurisprudensiya" ta'lim yo'nalishi mavjud boshqa davlat oliy ta'lim tashkilotlarida universitet tajribasidan kelib chiqib, amaliy o'qitish hamda klinik va dual ta'lim tamoyili asosida ta'lim olish tizimi yo'lga qo'yilishi belgilandi. Bunda 2–4-kurslar uchun yuridik ta'lim dasturlarining 50% auditoriyalarda, 50% (amaliyot qismi) sud, huquqni muhofaza qiluvchi organ va boshqa yuridik sohaga oid tashkilotlarda o'tkazilishi, ayniqsa amaliy misollar bilan "yumshoq" ko'nikmalarni shakllantirish ustuvor vazifa qilib belgilan-

di. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, jumladan, Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari 2025-2026-o'quv yili davomidagi ta'limning amaliyot qismini mahallalarda o'tayapti. 2026-yil 1-iyuldan boshlab universitetning 3-4-kurs talabalarini davlat tashkilotlari, notariat va advokatlik tuzilmalariga ish yurituvchi, yuriskonsult yordamchisi sifatida ishga qabul qilishga ruxsat berildi.

Ta'lim jarayonlariga sun'iy intellektni olib kirish, huquqiy texnologiya va raqamli huquq yo'nalishlarini rivojlantirish maqsadida 2026-2027-o'quv yilidan boshlab universitetda sun'iy intellekt asosida dars sifatini baholash tartibi yo'lga qo'yilishi, u asosida tyutorlik faoliyati talaba ko'makchisi sifatida joriy etilishi, yakuniy nazoratlar tekshirilishida inson omili cheklanib, bu jarayon sun'iy intellekt tomonidan amalga oshirilishi, "Raqamli huquq" xalqaro ta'lim yo'nalishi tatbiq etilishi belgilab qo'yildi. Yangi fakultetga kirishda ingliz tilidan B2 sertifikat, IQ testi tekshiriladigan bo'ldi. Ayniqsa, huquq fanidan bilish darajasini baholash bo'yicha test sinovini tashkil etish hamda uning natijalari asosida davlat namunasidagi sertifikat berish tartibi joriy etilishi barcha abituriyentlar uchun muhim yangilik bo'ldi.

Farmondan ko'zlangan asosiy maqsad talaba-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni har tomonlama yetuk va zamonaviy fikrlaydigan kadrlar etib tayyorlash

uchun keng ko'lamli imkoniyatlar yaratishdir. Ayniqsa, bugun sun'iy intellekt texnologiyalari deyarli barcha sohalarini qamrab olayotgan bir paytda, ularning yurisprudensiya yo'nalishiga ham keng tatbiq etilishi dolzarb masalalardan biridir. Universitetda Raqamli huquq fakultetining tashkil etilishi bu borada muhim qadam bo'lib, u yerdan zamonaviy axborot texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi, elektron sudlov tizimi hamda raqamli huquqiy munosabatlar bo'yicha malakali kadrlar yetishib chiqadi. Natijada, nafaqat yoshlarning ta'limdagi salohiyati yuksaladi, balki sud-huquq tizimida fuqarolar uchun qulayliklar yaratiladi. Ularning murojaatlari tezkor, aniq va shaffof tarzda ko'rib chiqilishi ta'minlanadi. Shuningdek, dual va klinik ta'lim tizimining joriy etilishi yosh kadrlarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishiga imkon beradi. Talabalar fuqarolarning real murojaatlari bilan ishlash jarayonida huquqiy tahlil qilish, hujjatlar tayyorlash va muammolarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa kelajakda ularning malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur farmon huquq sohasini zamonaviy bosqichga olib chiqish, yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda adolatli jamiyat barpo etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sevdo HAKIMXO'JAYEVA,
TDYU talabasi



Siz nima deysiz?

Maktablarda ota-onalar navbatchiligi tashkil etilsa...



Raqamli texnologiyalar davrida ham intellektual, ham jismonan yetuk shaxslarni kamol toptirishni istar ekanmiz, tarbiya, ma'naviyat, ta'lim masalasi dolzarb bo'lib qolaveradi.

Texnologiyalar insonlar o'rtasidagi o'zaro muloqotni keskin kamaytirdi. Bu esa oila, qarindoshlik, do'stlik, mehr-oqibat singari rishtalar qadrini pasaytirdi. Insonlarda o'z manfaatlarini barcha narsadan ustun qo'yish kabi salbiy jihatlar tobora kuchaymoqda. Natijada jamiyat taraqqiyotiga kishan bo'luvchi huquqbuzarlik, jinoyatchilik soni ortib bormoqda. Bunday holatlarning yoshlar tomonidan sodir etilishi esa masalaning naqadar jiddiy ekanini bildiradi. Misol uchun, 2019-yili huquqbuzarlik bo'yicha 13–17 yoshdagi 818 nafar voyaga yetmaganlar ro'yxatga olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich har yili o'sib borgan va 2023-yili 3599 nafarga yetgan. Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar samarasi o'laroq, bu raqamlar 2025-yili 2306 nafarni tashkil qildi.

Qanday qilib huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish mumkin? 2025-yil 3-yanvar kuni “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori imzolandi. Qarorda huquqbuzarliklar profilaktikasini manzilli(mahallabay) ishlash orqali kuchaytirish maqsadida har bir tashkilotning vazifalari aniq belgilab berilgan. Ko'cha chiroqlari deysizmi, xavfsizlik kameralari, yoshlar bilan ishlash, qo'yingki, mahallalarda xavfsiz muhitni ta'minlashga qaratilgan barcha vazifalar ijrochilari ko'rsatilgan holda, 2025-yil davomida amalga oshirilishi belgilanib, ijrosi ta'minlandi.

2026-yil 5-yanvar kuni “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” Prezident qarori imzolandi. Bu 2025-yildagi qarorning yangi bosqichi, mantiqiy davomidir.

Mahallalarda jinoyatchilikni qariyb 1,5 baravar kamaytirishga erishilgani ko'rsatib o'tilgan yangi qarorda, 2025-yil davomida shakllantirilgan tizim doirasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha yagona yondashuv joriy etilib, mahallabay ishlash samaradorligini oshirish maqsad qilingan. Ushbu choralar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligini kuchaytiradi. Shu munosabat bilan belgilangan mexanizmlarga muvofiq ishlarni davom ettirish vazifasi qo'yilgan. Ishonchimiz komilki, ushbu qaror ijrosi ham sidqidildan bajarilsa, ko'zlangan maqsadlarga erishamiz.

“Arpaning doni bo'lguncha, bug'doyning somoni bo'l” deydi dono xalqimiz. Shu jihatdan yelkamizdagi yukning naqadar og'irligini anglab, tarbiyada muhitning ahamiyati, xalqimiz tinchligini ta'minlashda o'zimni kamarbasta bilib, taklif bildirmoqchiman. Taklifim maktab va o'qituvchilarga bevosita aloqador bo'lgani sababli “Ma'rifat” gazetasi mushtariylarining – hurmatli ustozlarning mazkur loyiha yuzasidan fikr va mulohazalarini bilmoqchiman.

2025-yil 3-yanvardagi qarorga 5-ilova, 2-bob, 8-v bandi 5-xatboshisida: “*voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning profilaktikasini samarali tashkil etish maqsadida ichki ishlar organlari voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar huquqbuzarliklar sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan o'quvchilarni aniqlash va ular bilan manzilli ishlashni tashkil etish faoliyatini “mahalla yettiligi” bilan birgalikda har oy yakunida muhokama etib borish*” belgilangan.

Farzand tarbiyasiga har birimiz mas'ulmiz. Mahalla yettiligi, milliy gvardiya xodimlari, psixolog – muammoning yechimi bilan emas, natijasi bilan ishlashini tan olaylik. Shu jihatdan birinchi galda ota-onalarga mas'uliyatini his ettira olishimiz zarur. Garchi bugun ayrim ota-onalar “Ma'muriy javobgarlik to'g'risida”gi kodeksning 47-moddasi tartibida javobgarlikka tortilayotgan bo'lsa-da, bu ota-onaning farzandi bilan muloqotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasligini ham unutmash kerak. Muammo faqat huquqbuzarlik sodir etgan, maktab ichki tartib-qoidalariga amal qilmayotgan o'quvchilar bilan ishlashda emas. Buni kengroq ko'rib chiqish lozim. Gap har bir o'quvchining individualligida. Uning o'z istaklari, orzu va maqsadlari bor. Tarbiya va ta'limni tashkil etishda ota-onaning ishtirokini ta'minlamas ekanmiz, maqsadli harakat qilib bo'lmaydi.

Taklifim – maktablarda ota-onalar navbatchiligini yo'lga qo'yishdan iborat. Navbatchilik deganda, yo'lakda qo'ng'iroq chalish, keldi-ketdi, tartib-intizomni nazorat qilishni nazarda tutmayapman, ma'no-mazmun boshqacha.

Ota-onalarning maktab hayotidagi faol ishtiroki dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida nafaqat an'ana, balki qonuniy mustahkamlangan tizim hisoblanadi. Masalan, Yaponiyada ota-onalarning darslarni kuzatishi tizimli yo'lga qo'yilgan. Har chorakda kamida bir marta ota-onalar uchun “ochiq dars kunlari”(open class days) tashkil etiladi. Bu kunlarda ota-onalar darslarga kelib, farzandining o'zini tutishi va o'qituvchining metodikasini bevosita kuzatishlari mumkin. Shuningdek, ota-onalar va o'qituvchilar assotsiatsiyasi bo'lib, bu tashkilot juda kuchli vakolatlarga ega. Ota-onalar maktab tadbirlari, xavfsizlik va hatto maktab mablag'larini sarflash bo'yicha qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etishadi hamda bolalarning maktabga xavfsiz yetib kelishini ta'minlash uchun ko'ngilli ravishda ertalab yo'llarda navbatchilik qilishadi.

Finlandiyada ota-onalar maktabning pedagogik hamkori hisoblanadi. Qonunchilik ularning ta'lim jarayonini kuzatish va unda ishtirok etish huquqini demokratik huquq sifatida kafolatlaydi. Har bir o'quvchining ta'lim rejasi ota-ona ishtirokida muhokama qilinadi, bu esa ularning dars sifatini nazorat qilishiga zamin yaratadi.

Daniyada ota-onalar maktab boshqaruv kengashining ajralmas qismidir. Ular maktabning ichki tartib-qoidalari, dars jadvalining umumiy tamoyillari va maktab budjetini tasdiqlashda qatnashadilar.

AQSH va Kanadada ota-onalar maktabda turli rollarda navbatchilik qilishlari mumkin. Ular o'qituvchiga dars payti kichik guruhlar bilan ishlashda, o'qish mashqlarida yoki laboratoriya ishlarida yordam berish uchun ko'ngilli(volunteer) sifatida taklif qilinadi. Ota-onalar tushlik vaqti oshxona yoki kutubxonada tartibni saqlashga yordam berish orqali maktab hayotida qatnashadilar.

Janubiy Koreyada ota-onalarning maktabga munosabati yuqori. Ota-onalar uyushmalari maktabdagi ovqatlanish sifati va o'quv dasturlarining bajarilishini muntazam tekshirib boradi. Bu tizim “maktab – oila – jamiyat” zanjirining mustahkamligiga xizmat qiladi.

Dunyo tajribasiga tayangan holda quyida taklifimni batafsil bayon etaman:

1. Mazkur taklif namunaviy-loyihaviy ish bo'lib, uni 2025-yildagi qaror asosida amaliyotga tatbiq etish mumkin. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlarda ota-onalarning huquq va majburiyatlari belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2018-yil 14-sentabrdagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ota-onalar qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi nizom”ni tasdiqlash haqida buyrug'i ota-onalar qo'mitasining vazifalari va faoliyatini tartibga soladi. Prezidentning 2019-yil 29-apreldagi “Umumiy o'rta ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” qarorida ham ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ularning ta'lim jarayonidagi ishtirokini oshirish choralari belgilangan. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish to'g'risida”gi qarorida ota-onalar bilan psixologik xizmat doirasida hamkorlik qilish masalalari ko'rsatilgan.

Ota-onalar ta'lim tashkilotining faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayoni bilan tanishish, darslarni kuzatish va ta'lim sifatiini yaxshilash bo'yicha takliflar berish huquqiga ega. Maktablarda ulardan tarkib topgan Kuzatuv kengashlari faoliyat yuritadi. Ushbu kengash a'zolari maktabning ichki tartibi, ovqatlanish sifati va o'quv jarayonini nazorat qilish vakolatiga ega.

2. Maktab ma'muriyati ota-onalar bilan yig'ilish o'tkazadi. Yig'ilishda farzandi ta'limiga befarq bo'lmashlik, davomat, yurish-turish bo'yicha jamoatchilik asosida ota-onalar nazoratini yo'lga qo'yish taklifi bildiriladi. Mazkur ish jamoatchilik asosida, ya'ni haq to'lanmaydigan ish sifatida ota-onalarning xohish-irodasi bilan amalga oshirilishi kerak. Ammo bilasizki, bizda bu borada oqsash bor. Shuning uchun umumiy tus berilib, muddati kelishilgan holda bir oyda faqat bir kun, 5-6 soat farzandi uchun vaqt ajratishini tushuntirish orqali ota-onaning kelishini tashkillashtirish kerak. Qat'iy talab qo'yilmaydi, farzandi uchun bir oyda bir kun vaqt ajratishi lozimligi tushuntiriladi. Masala muhokamaga qo'yiladi. Ushbu loyiha ota-onalar tomonidan ovoz berish yo'li bilan ma'qullansa, yig'ilish bayonnomasida asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

3. Yig'ilish bayonnomasi asosida ota-onalar ro'yxati(bir o'quvchining otasi yoki onasi) shakllantiriladi va dars kunlari

bo'lib chiqiladi. Bunda bir ota yoki ona bir oyda bir kun faqat farzandining dars mashg'ulotlariga(demak 5-6 soat) kelib, dars boshlanishida o'quvchilarni kutib oladi, dars mashg'ulotlariga kiradi, sinf va maktab hududida o'quvchilarning, xususan, farzandining yurish-turishini nazorat qiladi. Dars sifati bo'yicha maktab direktoriga tavsiyalar beradi. E'tiroz va tavsiyalarini maktab ma'muriyatiga yozma ravishda bildiradi.

“Ishdan vaqt topa olmayman, ishxonamga rasmiy xat bering”, deydigan ota-onalarga maktab ma'muriyati tomonidan xat qilib berilishi mumkin. Shuningdek, bu ishga huquqbuzarlik profilaktikasi va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbir deb qaralsa va majburiy mehnat deb noto'g'ri talqin qilinsa, ushbu loyihaning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi tayin.

Huquqiy jihatdan ota-ona maktab ma'muriyati bilan kelishgan holda darslarni kuzatishi yoki Kuzatuv kengashi orqali nazoratda qatnashishi mumkin. Biroq bu jarayon darsning normal o'tishiga xalaqit bermasligi va pedagogning ish faoliyatiga asossiz aralashuv bo'lmashligi shart.

Sinfda 25–30 o'quvchi bor, ularning otasi va onasi hisobga olinsa 2 oyda bir marta ota, bir marta ona maktabga keladi xolos. Bir kunda bitta sinfdan bir ota yoki ona keladi. Ular darslarda ishtirok etish chog'ida o'qituvchining faoliyatiga aralashmaslik, hatto gapirmaslik bo'yicha oldindan ogohlantiriladi.

Ota-onaning dars mashg'ulotlariga kuzatuvchi sifatida kirishi o'quvchilarda kuchli taassurot qoldiradi. O'quvchi darsda ham, tanaffusda ham kuzatuvda ekani sezib, o'zini munosib tuta boshlaydi. O'quvchining hech bo'lmaganda bir oyda bir marta darsdan so'ng otasi yoki onasi bilan birga uyga qaytishi oilaviy muhitga va o'quvchi ruhiyatiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Kuzatuvdan so'ng ota-onalar taklif va e'tiroz, shikoyatlarini yozma tarzda bayon etishadi. Balki savolnoma tuzib berish lozim bo'lar. Yozma shaklda xulosa berilsa, maktab ma'muriyati xulosalarni o'rganib chiqishga ulguradi va kelgusidagi ishlarni rejalashtiradi.

To'g'ri, ota-onalarda vaqt tig'izligi masalasi bor. Biroq ular o'zlarining maktabga kelish kunini maktab ma'muriyati bilan kelishgan holda rejaga kiritishlari mumkin bo'ladi. Umuman vaqt topa olmaydigan ayrim ota-onalar katta yoshdagi boshqa oila a'zosining ishtirokini ta'minlashi lozim.

Hozirgi kunda ko'plab maktablarda ota-onalar uchun darslarni onlayn kuzatish tizimi(kameralar orqali) joriy etilgan, bu ota-onaga farzandining darsdagi ishtirokini bevosita ko'rish imkonini beradi. Biroq bu ham muloqotsizlik, texnologik qaramlik, psixologik buzilishlarga olib kelmoqda.

O'ylaymanki, bu tizim ota-onalarni farzandi ta'limi uchun e'tibor qaratishga, bir oyda bir kun, 5-6 soat bolasi uchun vaqt topishga, huquqbuzarliklarning oldini olish, oilaviy muhitni yaxshilash, daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish, o'quvchilarda darsga ishtiyiq uyg'otish, psixologik qo'llab-quvvatlanishni his qildirishga yordam beradi.

Hurmatli ustozlar, sizning pedagogik tajribangiz va mulohazalaringiz loyiha-ning yanada boyishiga xizmat qilishi mumkin. Taklif va e'tirozlaringizni tinglashga tayyorman.

Dostonbek SHARIPOV,
O'ZMPU talabasi,
Parkent tumanidagi
26-maktab o'qituvchisi

Yuksalish

Qadim afsonalar yurti Boysun farzandiman. Bu tuproq menga gʻurur, sabr va matonatni meros qoldirgan. Bugun oʻzimda Boysun togʻlarining sobitligi bilan Toshkentning joʻshqinligini birlashtirdim. Shu uygʻunlik hayot yoʻlimning boyligi, ichki quvvatimning manbayi.

Mehr-muhabbat bilan yuksal...

Bolaligimda shoʻxligimga qaramay ertak kitoblar oʻqish, televizor tomosha qilish, doʻstlarim bilan koʻchada toʻp tepishni yaxshi koʻrardim. Meni rom etgan jihat – televizordagi rang-barang tasvirlar edi. Ekran ortida qanday jarayonlar boʻlishi, tasvirlar qanday yaratilishi, kamera va texnika sir-asrorlari menda cheksiz qiziqish uygʻotardi. Bu qiziqish vaqt oʻtib oddiy havasdan aniq maqsadga aylandi. Maktabni tamomlagach, qiziqqan soham boʻyicha kollejga hujjat topshirdim.

Vaqt oʻtdi...

Ulgʻaydim...

Orzularim ham ulgʻaydi...

Soʻng taqdir tarix, eʼtiqod va madaniyat uygʻunlashgan muazzam shahar – Istanbulga yetakladi. Uning osmon bilan tutashgan minoralari, toʻlqinlari, asrlar hikoyasini soʻzlaydigan dengizi sokin, ammo maʼnoli koʻchalari qalbimda chuqur taassurot qoldirdi. Boysun ildizimni, Toshkent hayot maktabini bergan boʻlsa, Istanbul ruhiy yetuklik sari eshik ochdi.

Shuningdek, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti taqdirimni oʻzgartirgan muhim manzil boʻldi. Aynan shu dargohda sodir boʻlgan tasodifiy uchrashuv sabab hayotimda mazmunli bosqich boshlandi. Shu bilan birga, Oʻzbekiston Milliy tele-radiokompaniyasida chiroq ustasi va operator lavozimida faoliyat yuritaman. Faoliyatim davomida turli hududlarga safar qilamiz, taniqli va ijodkor insonlar bilan muloqotda boʻlamiz hamda oʻziga xos syomka jarayonlarida ishtirok etamiz. Faylasuf Konfutsiyning “Agar siz oʻzingiz sevgan kasb bilan shugʻullansangiz, hayotingiz davomida bir kun ham ishlamaysiz” eʼtiqodiga tayangan holda jamiyat rivojiga munosib hissa qoʻshishni maqsad qilib olganman. Shiorim esa barcha qadamlaringma yoʻnalish berib keladi: “Mehr-muhabbat bilan yuksalish tomon yugur, shunda dunyo ortingdan ergashur”.

Xorun SAID,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Psixologning kasbiy kompetensiyasi: uni qanday shakllantiramiz?

Taʼlim, sogʻliqni saqlash, ishlab chiqarish, boshqaruv, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy sohalarida psixologik xizmatga boʻlgan ehtiyoj oshib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan psixologiya yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki psixolog nafaqat nazariy bilimga, balki yuqori darajadagi amaliy koʻnikma, axloqiy masʼuliyat va kommunikativ madaniyatga ega boʻlishi lozim.

Kasbiy kompetensiya tushunchasining psixologik mazmuni

Kasbiy kompetensiya – bu mutaxassisning oʻz kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishiga imkon beruvchi bilim, koʻnikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlar majmuasidir. Psixologiya sohasida esa kasbiy kompetensiya inson ruhiyati bilan ishlash, psixologik holatlarni tahlil qilish, maslahat berish va yordam koʻrsatish qobiliyati bilan bevosita bogʻliqdir.

Psixologning kasbiy kompetensiyasi quyidagi asosiy komponentlarni oʻz ichiga oladi:

- nazariy-bilim komponenti – umumiy, ijtimoiy, yosh, pedagogik va amaliy psixologiyaga oid bilimlar;
- amaliy-funksional komponent – diagnostika, korreksiya, konsultatsiya va profilaktika koʻnikmalari;
- kommunikativ komponent – tinglay olish, ishonchli muloqot oʻrnatish, empatiya;
- axloqiy-professional komponent – maxfiylik, masʼuliyat, kasbiy etika va deontologiya;
- shaxsiy-regulyativ komponent – stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, oʻz-oʻzini nazorat qilish.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish yoʻllari

Psixologiya yoʻnalishida kasbiy kompetensiyani shakllantirish tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

1. Nazariy bilimlarni chuqur oʻzlashtirish. Psixologiya fanining fundamental nazariyalari, ilmiy maktablar va zamonaviy tadqiqot natijalarini puxta oʻrganish kasbiy kompetensiyaning asosini tashkil etadi. Nazariy bilimlar amaliy faoliyat uchun meto-

dologik poydevor vazifasini bajaradi.

2. Amaliy mashgʻulotlar va treninglar. Psixologik treninglar, rolli oʻyinlar, keys-tahlillar talabalarda amaliy koʻnikmalarni shakllantiradi. Ayniqsa, psixologik diagnostika usullarini qoʻllash, test natijalarini talqin qilish va xulosa chiqarish qobiliyati muhim hisoblanadi.

3. Ishlab chiqarish amaliyoti va superviziya. Talabalarining maktablar, tibbiyot muassasalari, psixologik markazlar va ijtimoiy tashkilotlarda amaliyot oʻtashi kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Superviziya esa talabaning xatolarini tahlil qilish va kasbiy oʻsishini taʼminlaydi.

4. Shaxsiy rivojlanish va refleksiya. Psixolog uchun oʻz shaxsiyatini anglash va refleksiya qilish muhim hisoblanadi. Oʻz his-tuygʻularini nazorat qilish, shaxsiy muammolarni kasbiy faoliyatga koʻchirmaslik kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. Uzluksiz taʼlim va oʻz-oʻzini rivojlantirish. Zamonaviy psixologiya tez surʼatlar bilan rivojlanib borayotgan fan sohasi hisoblanadi. Seminar, vebinar, ilmiy konferensiyalar va malaka oshirish kurslarida ishtirok etish psixologning kasbiy salohiyatini doimiy ravishda oshirib boradi.

Xulosa qilib aytganda, psixologiya yoʻnalishida kasbiy kompetensiyani shakllantirish faqat bilim olish emas, balki shaxsiy yetuklikka erishish jarayonidir. Nazariy bilim, amaliy tajriba, axloqiy masʼuliyat va oʻz-oʻzini rivojlantirish uygʻunligi orqali jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan, malakali va ishonchli psixolog mutaxassisni tayyorlash mumkin. Bu esa inson va jamiyat farovonligiga xizmat qiladi.

Gulhayo JOʻRAYEVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
1-kurs talabasi

Izhor

Qadoq qoʻllardagi nurli yoʻl

Dunyoda shunday qudratli kuch borki, u nafaqat oilani, balki butun bir jamiyatni oʻz yelkasida tutib turadi. Bu kuch oʻzbek ayolining matonati, uning qadoq qoʻllaridagi cheksiz mehr. Biz taraqqiyot, zamonaviy texnologiyalar haqida balandparvoz gaplarni koʻp gapiramiz, biroq mana shu yuksalishlarning poydevorida sahar uygʻonib, tandirga oʻt qalayotgan, qoʻli mehnatdan yorilib, farzandi kelajagi uchun borini fido qilgan onalarimiz turganini baʼzan unutib qoʻyamiz. Bugun qishloq ayolining orzulari va qiyinchiliklari haqida yozar ekanman, koʻz oldimda, avvalo, oʻz onamning hayot yoʻli, uning qadoq qoʻllari gavdalanaveradi.

Qishloq hayoti – bu tinimsiz harakat va zahmat demakdir. Shaharning qulayliklaridan yiroqda, tabiatning har bir inijligi bilan yuzma-yuz yashaydigan ayolning matonati har qanday taʼrifdan ustun. Onamning hayoti misolida aytsam, qish qahratonida, hali tong otmasdan turib, muzdek suvda kir yuvishlar, yoz jazirasida dala ishlaridan ortmay, roʻzgʻorning kam-koʻstini butlash shunchaki kundalik yumush emas, balki haqiqiy qahramonlik edi. Oʻsha paytlari onamning yorilgan kaftlariga,

charchoqdan horgʻin koʻzlariga boqib, ichimda bir oʻkinch uygʻonardi. Ammo u hech qachon nolimas, aksincha, “Sizlar oʻqinglar, biz koʻrgan qiyinchiliklarni koʻrmanglar”, deya bizni bilim olishga, choʻqqilarni zabt etishga undardi. Qishloq ayolining eng buyuk orzusi ham aslida shu – oʻzi yetolmagan marralarga farzandining yetishini koʻrish.

Onalarning qadoq qoʻllari – bu shunchaki jismoniy mehnat belgisi emas, balki farzandlar kamoli uchun tutilgan nurli yoʻldir. Onam oʻzi yangi koʻylak

kiyishdan voz kechsa-da, bizning kitob-daftarimiz but boʻlishini, kiyimlarimiz ozoda turishini hamma narsadan ustun qoʻygan. Bugun ham chekka qishloqlarga nazar tashlasangiz, minglab mana shunday moʻtabar onalarni koʻrasiz. Ularning orzulari bugun davlatimizning yuksak maqsadlari bilan tutashib ketgan. Ilgari xonadoniga gaz yoki suv kelishini hayotidagi eng katta baxt deb bilgan boʻlsa, bugun onalarimiz farzandlarining xorijda oʻqishi, axborot texnologiyalarini egallashi yoki katta tadbirkor boʻlishini orzu qilmoqdalar. Bu orzularning roʻyobi esa oʻsha qadoq qoʻllarning duosi va mehnati bilan sugʻorilgan.

Jurnalistika universiteti talabasi sifatida aytishim mumkinki, jamiyatning maʼnaviy qiyofasi qishloq ayolining baxti bilan oʻlchanadi. Qachonki qishloq onasining yuzida tashvish emas, xotirjamlik va shukronalik boʻlsa, ana shundagina biz haqiqiy yuksalishga

erishgan boʻlamiz. Onamning yoshligidagi ushalmay qolgan orzulari bugun mening yutuqlarimda, ukalarimning muvaffaqiyatida yashamoqda. Bu – avlodlar oʻrtasidagi muqaddas silsila. Qishloq ayolining qoʻllari qadoq boʻlsa-da, uning qalbi pokiza va nurli. Ular oʻz hayoti bilan bizga hayot darsini oʻtdilar: qiyinchilikka boʻyin egmaslikni, mehnatdan qochmaslikni va har qanday sharoitda ham odamiylikni saqlab qolishni oʻrgatdilar.

Bu mavzuni yoritish – nafaqat onalarimizga ehtirom, balki jamiyat eʼtiborini oʻsha zahmatkash qoʻllarga qaratish demakdir. Zero, biz bosib oʻtayotgan har bir taraqqiyot yoʻlimiz, erishayotgan har bir marramiz zamirida qishloq onalarining sabri va duosi yotibdi. Ularning qadoq qoʻllari biz uchun nurli kelajak darvozasini ochib bergan kalitdir. Bu nurli yoʻldan oʻtgan har bir farzand oʻz onasining oldidagi qarzdorlik hissini hech qachon unutmasligi, ularning qadri-ni har lahzada baland tutishi muqaddas burchidir.

Sirojiddin SAMANDAROV,
OʻzJOKU talabasi



Siz nima deysiz?

GAP YEAR

Yoshlar oʻrtasida “gap year”(yillik tanaffus) tushunchasi tobora ommalashib bormoqda. Maktab, kollej yoki litseyini tamomlagan yoshlarning universitetga kirishdan avval bir yillik tanaffus olishi “gap year” deyiladi. “Gap year” – oʻz yoʻlini topishga intilayotgan yoshlar uchun muhim bosqich boʻlishi mumkin.

“Gap year” imkoniyatmi?

Gap year – oʻzini anglash va kasb tanlashda mustaqil qaror qabul qilishni istagan yoshlar uchun moʻljallangan davr. Odatda bu imkoniyatdan 18–25 yosh oraligʻidagi yoshlar foydalanishadi. Baʼzilar bu tanaffusni universitetga kirishdan avval, boshqalar esa oʻqish jarayonida yoki diplom olgandan keyin olishadi. Bunda taʼlimdan vaqtincha chekinib, hayotiy yoʻlni aniq belgilab olish asosiy maqsad hisoblanadi.

Gap year davrida yoshlar turli faoliyat turlarini sinab koʻrishlari mumkin. Masalan, volontyorlik, xorijiy tillarni oʻrganish, qiziqqan sohasida ishlab amaliy tajriba oʻrtirish, shuningdek, shaxsiy startap va loyihalar ustida ishlash. Bu jarayon orqali ular mustaqil fikrlashni oʻrganib, qiziqishlarini aniqlab olishi va kelajakdagi yoʻnalishlarini puxta rejalashtirishi mumkin.

Aytish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda gap year rasmiy qoʻllab-quvvatlangan tizimga aylanib ulgurgan. Masalan, AQSH – AmeriCorps volontyorlik dasturi orqali ishtirokchilarga stipendiya va grantlar taqdim etsa, Avstraliya – Lattitude Global Volunteering yoshlar uchun arzon va xavfsiz loyihalarni tashkillashtiradi. Skandinaviya davlatlarida gap year dasturlarini davlatning oʻzi moliyalashtiradi.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, Buyuk Britaniyada har yili 29 mingdan ortiq yoshlar gap year olib, aksariyati keyinchalik universitetga oʻqishga kiradi. AQSHda esa har yili taxminan 40–60 ming bitiruvchi bu imkoniyatdan unumli foydalanadi.

Psixologlar fikricha, tanaffus yoshlarning stressini kamaytirib, motivatsiyani tiklaydi va oʻziga ishonchini mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, gap year olgan talabalar oʻz qiziqishlarini anglaydi, akademik natijalari yaxshilanadi. Shuning uchun bu davr asosan shaxsiy barqarorlikni oshiruvchi va kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun tayanch boʻluvchi davr sifatida qaraladi.

Oʻzbekistonda gap year tushunchasi hali rasmiy hujjatlarda belgilab qoʻyilmagan. Biroq yoshlar orasida oʻqishni maqsadli tarzda bir muddatga qoldirish holatlari asta-sekin koʻpaymoqda. Baʼzi talabalar tanaffus orqali oʻz kasbini toʻgʻri tanlashgan boʻlsa, boshqalar esa oʻz sohasini oʻzgartirish zarurligini anglagan. Bu tajriba hali keng ommalashmagan boʻlsa-da, taʼlim tizimi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Nilufar Roʻziyeva, OʻzJOKU talabasi:

– Koʻpchilik bir yillik tanaffusni bekorchilik deb hisoblaydi, shu sabab farzandlarining oʻqish yoki ishdan tanaffus olishini istashmaydi. Oqibatda baʼzi yoshlar katta hayotdagi yoʻlini tanlashda kechikishi yoki adashishi mumkin. Maktabni bitirganimgidan soʻng biror-bir oliy taʼlim muassasiga hujjat topshirishim shart edi. Lekin oʻzim eplab ketadigan kasbni aniq tanlab ulgurmagandim. Ota-onamning qistovi bilan maktabgacha taʼlim yoʻnalishiga hujjat topshirdim.

Ammo jurnalistika sohasiga boʻlgan qiziqishimni juda kech angladim. Oilaviy shoshma-shosharlik bilan qabul qilingan qaror tufayli uch yil davomida oʻzim qiziqmagan sohada tahsil olishga majbur boʻldim. Ehtimol, maktabni tamomlagach, oʻz yoʻlimni topish uchun bir yil vaqt berilganida, bugun jurnalistikani ikkinchi mutaxassislik sifatida oʻqimagan, hozir bakalavriat bosqichini yakunlab, magistratura bosqichida tahsil olayotgan boʻlarmidim?!

Halim Saidov, 4 farzandning otasi:

–Oʻgʻlim maktabni bitirgach, yillik tanaffus olishiga ruxsat berdim. Bu vaqt davomida u oʻqib xalqaro sertifikatlarga ega boʻldi, vaqtincha ishladi, turli sohalarni oʻrganishga harakat qildi. Eng asosiysi – oʻzini anglab yetdi. Hozir u Italiyada oʻqiyapti. Menimcha, bu yil uni mustaqil, masʼuliyatli va fikrlovchan insonga aylantirdi.

Shunday boʻlsa-da, bir fikrni ochiq aytmoqchiman: “gap year” imkoniyati asosan oʻgʻil bolalarga berilishi tarafdoriman. Chunki kuzatishlarimga koʻra, qizlar oʻgʻil bolalarga qaraganda ikki yil oldinroq fikrlash va hayotiy qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega boʻladi. Qiz bolalar koʻpincha 16-17 yoshdoyoq oʻz yoʻlini aniqlab oladi, oʻgʻil bolalar esa koʻproq sinov, tajriba va vaqtga muhtoj boʻladi, deb hisoblayman.

Ahadjon Nuraliyev, Oʻzbekiston Milliy universiteti talabasi:

– Dastlabki urinishda universitetga kira olmaganman. Oʻshanda “boʻldi, imkonim yoʻqoldi” degan fikr boshimdan ketmay qolgandi. Shunday paytda bir yillik tanaffus olib oʻz ustimda ishlashim kerakligini tushundim. Ammo bu katta masʼuliyat edi. Sababi, vaqtni toʻgʻri ishlatish, undan unumli foydalanishga majbur edim. Axir umrning bu pallasi boshqa qaytib kelmaydi. Oldindan bir yillik reja tuzib oʻqidim, bir nechta hunar oʻrgandim va hatto harbiy xizmatni ham oʻtab qaytdim.

Eng muhimi, bu fursatda oʻzim bilan yolgʻiz qolib, hayotimni qayta tahlil qilishga muvaffaq boʻldim. Qaysi sohani chin dildan xohlayotganim, aslida nimaga qiziqishim borligini angladim. Oʻsha bir yil menga na faqat ruhiy barqarorlik, balki aniq maqsadimga erishish uchun imkoniyat eshiklarini ochdi. Harbiy xizmatdan qaytgach, yana oʻqishga hujjat topshirdim. Bu safar faqat test uchun emas, oʻzim uchun tayyorlandim. Va men hozir orzumdagi universitet talabasiman.

“Gap year” – bu vaqtni yoʻqotish emas, balki oʻzini anglash, kuchli va zaif tomonlarini kashf etish uchun berilgan imkoniyat. Biroq u har kim uchun ham foydali boʻlavermaydi. Shu bois undan toʻgʻri, rejali tarzda foydalanish lozim.

Maftuna MUHIDDINOVA, OʻzJOKU talabasi

Fikr

QOʻSHIQDA SAVIYA MUHIMMI?

Yangi ijodkorlar avval ijtimoiy tarmoqlarda, soʻng sahnaga chiqib mashhur boʻlayotgan davrda yashayapmiz. Ayniqsa, oʻziga xos uslubi, yoqimli ovozi bilan mashhurlik choʻqqisiga koʻtarilayotganlar koʻp.

Taʼkidlash joiz, ayrim qoʻshiq matnlari atigi bir necha sodda misralardan iborat boʻlib qolayotgani ham bor gap. Ularning mazmunan sayozligi, badiiy ifoda yetishmasligi koʻngilni xira qiladi. Masalan, Ulugʻbek Yoʻlchiyev ijrosidagi qoʻshiq matniga eʼtibor qaratamiz:

*“Yur aylanib adirga, kelimiz birga-birga,
Yoningdan ketgim kelmas, choʻmilvobsan atirga.
Mast aylading, sarmast aylading,
Mening yurakkinamga ishqni joylading.
Chiroyda sen tenggi yoʻq, endi halovatim yoʻq.
Bu nima yurish endi, koʻylagingni yengi yoʻq.
Yanoqlaring qip-qizil, dudoqlaring qip-qizil,
Jinni qilasa voy-dod, sal insof qilib suzil.*

Ha, qoʻshiq shoʻx va raqsboq, sheʼr matni kuy ritmiga mos boʻlishi mumkin, biroq maishiy soʻzlardan nariga oʻtilmagan. Shuningdek, qoʻshiqlarga “Taram-taram”, “Salom”, “Alyonushka”, “Oʻzimman”, “Mast aylading” kabi maʼnosiz sarlavhalar qoʻyilmoqda. Aslida kuy bastalash, qoʻshiq uchun tanlanayotgan sheʼr ham salmoqli boʻlishi kerak. Bu qoʻshiqning yillar oʻtsa-da, oʻz muxlislarini yoʻqotmasligiga yordam beradi. Masalan, Farrux Zokirov, Kumush Razzoqova, Nasiba Abdulla-yeva qoʻshiqlari. Ilgari uslub sanʼatkorlarni kashf qilgan boʻlsa, bugun sanʼatkorlar uslubni kashf qilib, har bir yangilik urfga aylanmoqda.

Ahamiyat bersangiz, bugungi ijodkorlarning kliplari bir-biridan sifat, rang-baranglikda qolishmaydi. Sunʼiy intellektidan ham samarali foydalanilmoqda. Hatto, ijtimoiy tarmoqlarda millionlab koʻrishlar soniga ega. Demak, matn ham shunga yarasha boʻlishi kerak emasmi?

Shoira TONGOTAROVA, OʻzJOKU talabasi

Oʻy

QANOTINGNI QAYIRMASINLAR...

Sen kimdir uchun hamma orzularingdan kechish haqida oʻylaganmisan? Buni oʻylashning oʻzi gʻalati tuyulsa kerak. Lekin hayotda shunday rishtalar borki, fidokorlikni talab qiladi va sen hech ikkilanmay baxshida boʻlasan.

Masalan: otalik...onalik...

Osiyoning ota-onasi ham xuddi shunday edi. Oʻz maqsadlaridan farzandining orzularini afzal bilishdi. Qizaloqni qorachiqdek asrab-avaylab ulgʻaytirishdi. Osiyo bir suluv, bir suluv boʻlib oʻsdi. Aqli oltindan, odobi yoqutdan. Koʻrganlarning koʻzini quvnatardi. Shaharga universitetga oʻqishga kirdi. Oʻsha kuni uylariga butun qishloq yigʻildi. Bayrammisan bayram boʻldi oʻziyam. Otaning quvonchi terisiga sigʻmasdi: “Xotin, universitetga kirish nimaligini bilasanmi? Buni orzu qiladiganlar qancha!”.

Ularning dunyosi shu qadar goʻzal edi. To Osiyoni turmushga berishmaguncha. Soddagina ota-ona kuyovning qop-qop vaʼdalariga ishonishdi. Yoʻq, aslida oila qurmoqlik bunday qora ranglarda tasvirlanmasligi kerak. Oila – baxt. Faqat, hamma ham tushunavermaydigan baxt. Qiz oʻqishni tashlashga majbur boʻldi, aniqrogʻi majbur qilishdi. Shu nuqtada Osiyo qanotlarsiz qoldi. Qanotlarini qirqib olishgani kamlik qil-di chogʻi, qafasga ham solib qoʻyishdi. Tashqaridan qafasdagi bandi farzandini koʻrmoq ota-ona uchun fojia emasmi-di?! Ha. Bilib turib halokatdan yaqin-

ingni qutqarib ololmaslik hissi qanday ekanligini bilasanmi? Bu asli his emas, ogʻriq. Asardagi kichkina shahzoda oʻz gulini qanday avaylardi, yodingdami? Birovning gulini, birovning omonatini-chi? Omonat nima degani oʻzi? Qiziq, bu soʻzning maʼnosini Osiyoning eri yo qaynonasi tushunarmikan?..

Osiyo, orzulari osmon Osiyo! Hozir senga qiyin. Oʻzingni juda ojiz his qilasan. Biroq kelajakda oʻzing kabi farishtalarni dunyoga keltirasan. Oʻshanda ularning uchishiga yordam ber, xoʻpmi? Qafaslarini parchalab yubor, qanotlarini silab qoʻy. Oʻshanda, polaponlarningning parvozini koʻrganda umring behuda ketmaganiga ishonch hosil qilasan. Ota-onangdan ranjima. Ehtimol, bunga jurʼat etishmagandir. Biroq sen kelajakda qushlarningning ozodligiga posbon boʻl. Qanotlarini qayirishlariga yoʻl qoʻyma. Osmonlarni toʻldirib-toʻldirib uchishsin. Shunda oʻzingdan rozi boʻlasan. Shunda koʻksingda soʻngan choʻgʻ qayta gurillaydi. Shunda yana hayotga qaytasan.

Barnoxon RAJABOVA, ToshDOʻTAU magistranti



Sinab ko'ring

SUN'IY INTELEKT

VOSITASIDA TIL O'RGANISH METODLARI

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi chet tilini o'rganishda ham katta burilish yasamoqda. Chet tilini o'qitishda SI ni qo'llashning ijobiy jihatlari talaygina. Xususan:

► O'quvchining bilim darajasi, xatolari va o'rganish tezligini tahlil qilib, unga mos mashq va materiallarni avtomatik tanlaydi. ChatGPT, Grammarly, ELSA Speak kabi tarmoqlar o'quvchining xatolarini aniqlab, darhol izoh beradi, bu esa o'rganishni tezlashtiradi.

► O'quvchi istalgan mavzuda interaktiv suhbatlar o'tkazishi, yozma mashqlar bajarishi yoki talaffuzni mashq qilishi mumkin.

► Sun'iy intellekt vositalari onlayn asosda ishlaydi, bu esa o'quvchiga istalgan joy va vaqtda mashq qilish imkonini beradi.

► SI o'qituvchiga dars materiallari tayyorlash, mashqlar tuzish, esse va testlarni tahlil qilishda yordam beradi.

► SI yozishmalari va ovozli suhbat tizimlari orqali o'quvchi haqiqiy muloqot tajribasini his qiladi, bu esa gapirish ko'nikmasini mustahkamlaydi.

Shuni ham qayd etish joizki, SI texnologiyalari o'qituvchining o'rnini egallamaydi, balki uni samarali yordamchi sifatida qo'llab-quvvatlaydi. Natijada o'quvchilar mustaqil o'rganishga intiladi, o'qituvchi esa darsni kreativ va samarali tashkil etish imkoniga ega bo'ladi.

Chet tili o'qitishda innovatsion texnologiyalar

“Role-play speaking” metodi

Bunda o'quvchi SI bilan haqiqiy hayotga juda o'xshash vaziyatli suhbatlar quradi. U o'quvchiga rol yoki savollar beradi, javoblarini baholaydi, o'quvchining nutqiga mos ravishda suhbatni davom ettiradi. Bu metod speaking, listening, vocabulary va fluency bir vaqtda rivojlantiradi.

Metod qanday ishlaydi?

1-bosqich: Vazifa beriladi. O'quvchi uchun hayotiy vaziyat tanlanadi, masalan, “Restoranda ovqat buyurtma berish”, “Aeroportda check-in qilish”, “Ish suhbatida qatnashish”, “Mehmonxonada xona band qilish”.

O'quvchi shu vaziyatlarda o'zini qanday tutishi, qaysi iboralarini qo'llashi lozimligi haqida qisqa yo'riqnoma oladi.

2-bosqich: SI suhbatni boshlaydi va tanlangan rolga kirishadi, o'quvchi bilan jonli suhbat qiladi. Masalan, SI (kofeshop xodimi): “Hello! What would you like to order today?”

O'quvchi shu savolga javob berarkan gap tuzilishi, talaffuz, ravon so'zlash borasida o'zini sinab ko'radi.

3-bosqich: suhbat tabiiy davom etadi. SI o'quvchi javobiga qarab, suhbatni real hayotga mos tarzda davom ettiradi:

■ o'quvchi to'g'ri javob bersa → suhbat yanada chuqurlashadi;

■ xato qilsa → SI yumshoq tarzda yo'naltiradi;

■ jumlani noto'g'ri qursa → SI savollarni soddalashtiradi.

Jarayon real odam bilan suhbat qurgandek kechadi.

4-bosqich: suhbat tugagach, SI o'quvchining grammatik xatolari, talaffuzi, so'z boyligi, gapirish tezligi, jumalarning mantiqiy bog'lanishi, gaplarning tabiiyligi haqida mulohaza taqdim etadi. Masalan, “Past tense”da uchta xato qildingiz”; “Ingliz tilida “I want a coffee” o'rniga “Could I have a coffee?” tabiiyroq eshutiladi”.

Shu bilan birga, SI nutqni yaxshilash bo'yicha aniq maslahatlar beradi.

Ushbu metoddan foydalanilganda quyidagilarga erishiladi:

1. O'quvchi real hayotda qo'rqmay gapira boshlaydi. Ko'pchilik “gapirishdan uyalaman”, “xato qilaman” degan qo'rquvga ega. SI bilan suhbat davomida hech qanday bosim bo'lmagani uchun o'ziga ishonchi ortadi.

2. Tilni tabiiy holatda o'rganadi. Suhbatda iboralar tayyor holatda eslab qolinadi, gaplar avtomatik tarzda, tez aytiladi, o'quvchi “tilni his qilish” bosqichiga o'tadi. Bu jarayon grammatikani kitobdan o'qishdan ko'ra ancha samarali.

3. Xatolar tezda tuzatiladi. O'quvchi xato qilsa, SI to'xtamaydi va suhbatni davom ettiradi, lekin yakunda barcha xatolarni izohlaydi. Bu esa nutqni ravonlashtiradi.

4. Har qanday darajadagi o'quvchi bilan ishlaydi. SI o'quvchining darajasini tezda tushunadi:

• Beginner bosqichida bo'lsa → soddasavollar;

• Intermediate bo'lsa → murakkab savollar beradi;

• Advanced bo'lsa → munozara darajasiga olib chiqadi.


Bu individual yondashuvning amaliy ko'rinishi.

5. Talaffuz aniq o'rganiladi. Ovozli SI suhbatlarda har bir nota, urg'u va ritmga izoh beriladi. O'quvchi inglizcha ohangni sekin-asta o'zlashtiradi.

6. Ishtiyoq keskin oshadi. O'quvchi har suhbatdan keyin yangi so'z o'rganadi, o'zidagi o'sishni sezadi, gapirishdan qo'rqmay qo'yadi. Bu esa o'rganishni osonlashtiradi.

“AI-powered role swap” metodi (SI yordamida rollarni almashtirib, tilni interaktiv tarzda o'rgatish)

Bu metodda o'quvchilar har safar rolni o'zgartirib, tilni hayotdagi turli vaziyatlarda o'rganadi. SI o'quvchining har bir rolini sinovdan o'tkazadi va feedback beradi. Masalan, dars mavzusi: “Restaurant”.



Bir guruh o'quvchi mijoz, ikkinchi guruh xodim, uchinchi esa SI orqali shifrlangan mehmon yoki shikoyatchi rolini oladi. Bu har bir o'quvchining gapirish, tinglash, yozish va tez fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchi bu metodda real kontekstda muloqot qilish, muammolarni yechish va kreativ javob berish, grammatik va leksik xatolarni SI orqali darhol tuzatish, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini o'rganadi.

Metod qanday ishlaydi?

1-qadam: rollarni tayinlash. SI o'quvchilarga vazifa beradi: mijoz, xodim, shikoyatchi yoki boshqa personaj.

2-qadam: vaziyatni boshlash. SI boshlang'ich dialog yaratadi, masalan: “You want to order a coffee, but the barista says it's out of stock”.

3-qadam: rollarni almashtirish. O'quvchi javob beradi, SI vaziyatni murakkablashtiradi. 1-2 daqiqa o'tgach, rollar almashtiriladi: mijoz xodim bo'ladi, xodim shikoyatchi bo'ladi. Shu tarzda barcha o'quvchilar har bir rolni o'ynab ko'radi.

4-qadam: SI feedback. Grammatik, talaffuz, so'z tanlovidagi xatolarni ko'rsatadi va holatga moslab murakkablashtirib boradi.

“Adaptive AI task-scaffolding” metodi

Sun'iy intellekt asosida bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan va o'quvchi xatolarini izchil kamaytirib, uni yuqori aniqlik darajasiga olib chiqadigan metod. Bu metod dunyo bo'yicha eng ilg'or texnologiyalar yordamida qo'llanilayotgan, eng natijador yondashuvlardan biri. Bunda o'quvchi biror til ko'nikmasini, masalan, writing, speaking, reading, listeningni o'rganayotganda SI unga bosqichma-bosqich yengildan murakkabga o'tadigan mashqlar beradi va har bosqichda o'quvchining xatolarini ko'rib chiqib, keyingi bosqichni o'zgartirib boradi. Ya'ni dars o'quvchining o'ziga moslab jonli ravishda tuziladi.

Metod qanday ishlaydi?

1-bosqich: diagnostika (SI darajani aniqlaydi). O'quvchi kichik matn yozadi yoki 1 daqiqalik audio yuboradi. O'quvchining grammatik bilim darajasi, so'z

boyligi, nutqiy ravonligi, xatolari va kuchli tomonlarini tahlil qilib, xulosa chiqaradi. Masalan, “Sizda Passive Voice yaxshi, lekin linkers kam ishlatilgan. Vocabulary upper-intermediate, grammatikada Present Perfect ko'p xato”.

2-bosqich: o'quvchiga moslashtirilgan topshiriqlar ishlab chiqadi. Shuningdek, kamchiliklari asosida maxsus kichik topshiriqlar ham beradi:

• Agar o'quvchi articles'da xato qilsa → articles bo'yicha kichik mashqlar;

• If-clause'da qiyinchilik bo'lsa → if-clause asosida gaplar yaratish;

• Connecting words kam bo'lsa → ular bilan matn bog'lash mashqlarini beradi.

3-bosqich: Scaffolding (SI yordam, ko'mak va yo'riqnoma beradi). O'quvchiga darrov murakkab topshiriq berilmaydi, balki avval yo'riqnoma, namuna, yengil variant beradi. Masalan, “Avval gap tuzilishini ko'rib chiqamiz”. “Mana misol: If I had more time, I would travel a lot. Endi shunga o'xshash 2 ta gap tuzing”...

Bu o'quvchiga o'zini ishonchli his qilishi uchun kerak.

4-bosqich: mustaqil bajarish. O'quvchi endi shu mavzu bo'yicha mustaqil ravishda kichik esse yozadi yoki dialog tuzadi, audio ovozi yo'llaydi. SI faqat kuzatadi.

5-bosqich: SI chuqur tahlil + izohli tuzatish beradi. Matnni chuqur tahlil qilib, xato joylarni ko'rsatadi, har bir xatoning sababini tushuntiradi, to'g'ri variantlar taklif qiladi, o'quvchi darajasini yangilab turadi. Masalan,

✗ “She go to school yesterday”.

SI: “Past tense ishlatilgan, shuning uchun went bo'ladi. “Yesterday” vaqt belgisini sezganingiz yaxshi!”

6-bosqich: SI shaxsiy o'sish yo'lini ochadi. O'quvchining natijalaridan kelib chiqib o'zgaruvchan o'quv rejasini yaratadi:

“Bugun vocabulary ustida ishlaymiz”, “Ertaga speakingda muloqot bosqichiga o'tamiz”, “Sizga writing uchun linking words ko'proq kerak” kabi ko'rsatmalar natijasida o'quvchi haqiqatda shaxsiylashtirilgan o'quv jarayoniga ega bo'ladi.

Sabina MAHMUDOVA,
Is'hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet tillar
instituti talabasi

Munosabat



Globalashuv va raqamli texnologiyalar asrida axborot manbalari ko‘paydi, ma‘lumot olish osonlashdi. Biroq bu jarayon bilan birga atroflicha fikrlash, tahlil qilish va mulohaza yuritish madaniyati zaiflashib borayotgani ham sezilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa video va xabarlar insonni tez “iste‘mol qilinadigan”, ammo tez unutiladigan axborotga o‘rgatmoqda.

YILIGA 10 TA KITOB:

TALABMI YOKI IMKONIYAT?

Ana shunday sharoitda kitob o‘qish madaniyatini rivojlantirish masalasi jamiyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 15-yanvarda “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Jarayonda 2026–2030-yillarda aholining kitobxonlik darajasini oshirish ko‘zda tutilgan.

Qarorga ko‘ra, har bir fuqaro yiliga o‘rtacha kamida 10 ta kitob o‘qishi kerakligi ta‘kidlangani e‘tiboringizni tortadi, albatta. Xo‘sh, bu talabmi yoki imkoniyat? Qaror hech qanday majburiy jazo choralari nazarida tutmaydi. Bu davlat tomonidan qo‘yilgan maqsad sifatida rag‘batlantirish orqali erishiladigan ko‘rsatkich hisoblanadi.

Yiliga 10 ta kitob – kuniga atigi 15–20 daqiqa mutolaa qilish bilan erishiladigan natija. Shuning uchun ham qarorda kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilangan bo‘lib, yosh yozuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, bolalar adabiyotiga alohida e‘tibor qaratish, iste‘dodli mualliflarni aniqlash va ularning asarlarini nashr etish nazarda tutilgan. Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari yosh mualliflarga grant hamda oylik to‘lovlar ajratish, xorijiy adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning 50% miqdoridagi qismi va mualliflik huquqi uchun 80% miqdoridagi xarajatini qoplashga sarflanadi. Respublika budjetidan har yili tarjima va nashr uchun 20 milliard so‘m ajratilishi belgilangan. Shuningdek, davlat organlari va idoralarda ham katta islohotlar amalga oshiriladi. Jumladan, 2026-yil 1-martga qadar har bir vazirlik va idorada tegishli soha bo‘yicha kasbiy adabiyotlar ro‘yxati shakllantirilib, joriy yilning 1-apreliga qadar har bir tashkilotda “Kitob burchagi” tashkil etiladi. Xodimlar uchun esa har oyda “Kitob o‘qish soati” yo‘lga qo‘yiladi. Ichki reyting tizimi joriy etilgan holda eng ko‘p kitob o‘qigan xodimga Budjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus fondi hisobidan bir oylik ish haqi miqdorida pul mukofoti beriladi.

Aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida kitobga qiziqishni oshirish masalasiga alohida urg‘u berilgani bejiz emas. Chunki yoshlar qanchalik bilimli va kitobxon bo‘lsa, kelajak ham shunchalik farovon va yuksak bo‘ladi. Shuning uchun 2026-yil 1-fevraldan boshlab “Kitob – ma‘rifat manbayi” dasturi amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. Jumladan, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tizimidagi umumta‘lim muassasalarida “Jadidlar izidan” kitobxonlik klublari tashkil etilishi rejalashtirilmoqda. Bu klublarda o‘quvchilar uchun kitob tahliliga bag‘ishlangan debatlar o‘tkaziladi, ular yiliga kamida 20 ta kitob o‘qiydi, har chorakda eng faol a‘zolar rag‘batlantirib boriladi. Bu hali hammasi emas. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan eng ko‘p kitob o‘qigan TOP–100 nafar kitobxon aniqlanib, har biriga (jamg‘arma mablag‘lari hisobidan) bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari miqdorida pul mukofoti beriladi.

Bundan tashqari, jamoatchilik uchun targ‘ibot qilish maqsadida avtobus, metro, poyezd va samolyotlarda simsiz internet orqali “Mutolaa” platformasidan foydalanish imkoniyati yaratiladi, qulaylik uchun esa transportlarga QR-kodlar o‘rnatiladi.

Shuni unutmash kerakki, yiliga 10 ta kitob o‘qish hech qachon yakuniy maqsad bo‘lmashligi lozim. Bu insonning o‘z ushida ishlashga bo‘lgan dastlabki jiddiy qadamidir. Kuniga atigi 15–20 daqiqa mutolaa qilish orqali bu ko‘rsatkichdan ham yuqori natijalarga erishish mumkin. Shuning uchun eng muhimi odatni shakllantira bilishdir.

Irisa SHODIYEVA,
TDYU talabasi

Teran tomirlar

AJDODLARIMIZ NOMI TAZKIRALARDA



O‘zbek adabiyotida tazkira janri mumtoz adabiyotga borib tutashadi. Tazkira haqida Nosir Muhammadning “Nasaf va Kesh allomalari(IX–XX asrlar)” tazkirasida quyidagicha ta‘rif beriladi: “Qadimda allomalar va buyuk zotlar haqidagi ma‘lumotlarni to‘plash va ularni kitob – tazkira shaklida yozish an‘anasi keng tarqalgan edi.

Bosma nashrlar mavjud bo‘lmagan davrda ulug‘ ajdodlarimiz nomi, ularning ezgu ishlari ko‘plab tazkiralor orqali avloddan avlodga o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bugungi kunda ham ular tariximiz va madaniyatimiz fidoyilari bo‘lgan ilm ahli uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda”.

Tazkiralarda muayyan bir davrda ijod qilgan shoirlar qamrab olinib, ularning hayoti va ijodi haqida turli tamoyillar asosida ma‘lumot beriladi:

“Nasaf va Kesh allomalari(IX–XX asrlar)” tazkisasi nisbatan katta davrni o‘z ichiga oladi. Unda eng avval Nasaf va Kesh shaharlarining tarixi, nomlanish genezisi haqida ma‘lumot beriladi. Kitob to‘rt qism-

hamid al-Keshiyning 864-yilda vafoti(tug‘ilganligi haqida ma‘lumot keltirilmagan) haqida fakt keltirilganligining guvohi bo‘lamiz. Ushbu holatdan kelib chiqib fikr bildiradigan bo‘lsak, muallif tazkirasida ijodkorlarni ularga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra joylashtirgan. Ba‘zi ijodkorlar haqida juda qisqa, ba‘zi ijodkorlar haqida esa nisbatan to‘liq va aniq ma‘lumot keltirgan.

Shamsiddin So‘zaniy haqida, uning 10–12 ming misrani o‘z ichiga olgan she‘rlar devoni borligi, ushbu devon hozir Dushanbe shahrida saqlanayotganini aytib o‘tadi. Uning “Chu tiri g‘amza ba noz-u karashma andozi...” deb nomlanuvchi fors tilidagi g‘azalidan

Tazkiralarning eng ko‘p tarqalgan turlari:	Tazkiradagi shaxslar qaysi tamoyillar asosida joylashtirilishiga ko‘ra turlari:	Shoirlarni qamrab olish jihatidan ham quyidagi turlarga bo‘linadi:
Shoirlar haqidagi tazkiralor	“Abjad” tizimida	Tarixiy-zamonaviy
Valiylar haqidagi tazkiralor	Sulola va arab alifbosi asosida	Tarixiy
Dabirlar(kotiblar va xattotlar) haqidagi tazkiralor	Geografik uslub asosida	
Adiblar yoki olimlar haqidagi tazkiralor	Tazkira tuzuvchining tazkirada keltirilgan shaxslar bilan ko‘rishganligi, ijodiy muloqotda bo‘lgan yoki bo‘lmaganligiga ko‘ra	

ga bo‘lingan. “Voha tarixiga bir nazar” nomli maqola bilan boshlanuvchi birinchi qismida Nasaf(hozirgi Qarshi) shahri nomining etimologiyasi, genezisi, qaysi asrda qanday nomlangani, “Ilm va adab qubasi” bo‘lgani, bo‘lim oxirida esa tazkira kitoblari va ularning ahamiyati haqida qimmatli ma‘lumotlar keltiriladi. Ikkinchi bo‘lim esa “Nasaf va Kesh allomalari” deb nomlanib, unda 78 nafar alloma haqida ma‘lumotlar berilgan. “Amir Temur davri diplomatlari” deb nomlangan keyingi bo‘lim Amir Temur saroyida xizmat qilgan uch alloma(Hoji Muhammad al-Keshiy, mavlono Jaloliddin Keshiy va Abdulloh Keshiy)ga bag‘ishlangan. So‘nggi qismni esa muallif “Nasaf va Kesh xattotlik maktabi vakillari” deb nomlaydi va mazkur hududlardagi eng mashhur va el nazariga tushgan xattotlik maktablari vakillaridan 24 nafari haqida so‘z yuritadi.

Tazkirada tilga olingan allomalar yashab o‘tgan davriga ko‘ra xronologik joylashtirilmaganligini ko‘ramiz. Birinchi nomi tilga olingan alloma Mu‘az ibn Yoqub an-Nasafiyning 1113–1167-yillar oralig‘ida yashab o‘tgani keltirilgan bo‘lsa, undan keyin Abdul-

8 bayt keltiradi va mazmunini ham izohlaydi. Muallif tazkiradagi eng ko‘p joyni Dehlaviyga ajratadi. Uning ijodidan(tazkirada to‘rtliklar, g‘azallar va hikmatlari keltirilgan) namunalarini taqdim etar ekan, ayrimlaridan parchalar keltirib tarjima qilsa, ayrimlarini to‘lig‘icha keltiradi.

*Sanamning qop-qora sochida bu on
Yuz anbar urug‘i topibdir makon.
Dili o‘qdek to‘g‘ri deya o‘ylama,
Qovun kabi tishi ichida nihon.
(Muallif tarjimas)*

Adabiyotshunoslik oldida turgan vazifalardan biri tazkirachilik an‘analarini zamonaviy nazariy metodlar bilan uyg‘unlashtirgan holda tadqiq etish hisoblanadi. Shundagina tazkira faqat ma‘lumotlar bazasi emas, adabiyotimiz rivoji uchun ilmiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ruxsora LUQMONOVA,
ToshDO‘TAU magistranti

Siz nima deysiz?

TASAVVUR QILISH QOBILIYATIMIZ NEGA SUSAYMOQDA?

Bolaligimizda hech narsasiz dunyolar qurardik: oddiy tayoqchani qilich, qog‘ozni kemaga aylantirardik. Zerikkan paytimiz o‘ylardik, narsa yasardik, hikoya yozardik. Bugunning bolalari-chi? Hamma narsa oldindan chizilgan, bo‘yalgan, harakatlantirilgan. Ularning o‘ylashi, fikr yuritishiga ehtiyoj deyarli yo‘q.

Ekrans aqlni ishlatishga undamaydigan, shunchaki tomosha qilinadigan tasvirlar bilan to‘la. Zerikish hissi paydo bo‘lishi bilan ekran ochiladi va tasavvurga beriladigan imkoniyat o‘g‘irlanadi.

Shu bois tasavvur qilish, ichki dunyo bilan suhbatlashish asta-sekin yo‘qolmoqda. Bu esa ruhiy quvvatsizlik, ijodda no‘noqlikka sabab bo‘lmoqda.

Bugun bolalarga kitob o‘qi-

tish, rasm chizdirish juda muhim. Bola ikki narsadan uchinchi narsani hosil qilishni bilishi kerak. U mustaqil rasm chizganida, hikoya to‘qiganida miyasida minglab bog‘lanishlar hosil bo‘ladi. Ba‘zan birgina “Sen buni qanday tasavvur qilasan?” degan murojaat bolaning ichki olamini uyg‘otadi. U o‘z fikrining qadrlanishini sezgan zahoti o‘ylay boshlaydi, izlanadi, yaratadi. Tobora tushunyapmanki, bolani o‘ylash, tasavvur qilish, yaratishga o‘rgatib ulg‘aytirish kerak. Chunki texnologiya tez o‘zgaradi, ma‘lumot eskiradi, ammo mustaqil fikrlay oladigan, tasavvuri boy inson har qanday zamonga moslasha oladi.

Mashhura IBROHIMOVA,
UrDU talabasi

FUTBOL VA HAYOT FALSAFASI

(Zulxumorga maktub)

Assalomu alaykum, qadrli kursdoshim Zulxumor!

Kecha futbol bo'yicha Yevropa chempionlar ligasi o'yinlarini tomosha qilib bo'lgach, sizga maktub yozishga qaror qildim. Bir-biridan shiddatli, murosasiz o'yinlar ketma-ketligi. Irodali g'alabalar va alamli mag'lubiyatlar.

Darvoqe, maktubim avvalida sevimli "Yuventus"ingizga befarq emasligimni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Nazarimda "Yuventus" avvalgi "Yuventus" emas. Men o'sha Buffon, Del Piero, Nedvedlarni ko'p eslayman, sog'inaman. Ular endi tarix, tarix bo'lganda ham unutilmas tarix. Biroq yangi avloddan, yangi davrdan umid bor. Faqat ozingna sabr, ishonch kerak, xolos. Har safar ham ot izini toy bosavermaydi. Qachonki, toylar bir kun kelib otga aylanishini o'z vaqtida anglab yetasagina o'sha shonli va zafarli tarix yana qaytadi.

Zulxumor, "Yuventus"ning oq-qora rangli libosi yodingizdami? Men uchun u oddiy libos emas. Unda hayot bor, falsafa bor. Hayotning oq va qora kunlari, umrning qaro tuni, oppoq tongi, ko'ngilning ikki rang aro dabardarligi...

Zulxumor, o'ylab qarasam, hayot ham futbolga o'xshab ketarkan. Futbolda ham, hayotda ham oyoqdan chaladiganlar bor. Turtadigan, do'q uradigan, masxara qiladiganlar bor. Darvozabonlik – o'z qadr-qimmatingga posbonlik. Himoya – shaxsiyatingga bo'layotgan hujumlarga qarshilik ko'rsatish. Yaram himoya – fikrlash, qaror qabul qilishdan oldin yaxshilab o'ylab olishing uchun ajratilgan hudud. Hujum esa seni ezg'ilashga, mahv etishga shay turganlarga qarshi isyoning, javobing demakdir. Sariq kartochka – seni ogohlantirish uchun maxsus vosita: "Hoy, odam bolasi,

sen hozirgina hayot qonunini, odamiylik qonunini, vijdon qonunini buzding. Mayli, bu safar kechiraman. Lekin yana shu xatoni takrorlagudek bo'lsang ayab o'tirmayman", degandek. Qizil kartochka – ogohlantirilishingga qaramay yana xato qilganing uchun senga o'qilgan so'nggi hukmdir.

Zulxumor, futbol 90 minut o'ynaladi. Bu esa go'yo 90 yillik umrga ishoradek. Shu umrda(kimning qancha umr ko'rishi yolg'iz Xudoga ayon) yo yengilasana, yo yengasan, yoki hayot bilan, odamlar bilan kelishib durangga erishasan. Hayot va futbolning yagona farqi – hakamlikka. Futbol maydonidagi hakam sening yoningda, raqiblaring yonida. Biror xatoga yo'l qo'yilishi bilanoq baralla hushtagini chaladi. Hayot maydonida esa sening ham, raqiblarining ham yonida hakam yo'q. U yuksaklarda kuzatmoqda. U barchamizning qalbimizda, yuragimizda. Gunoh qilsang, xato qilsang hushtak yangramaydi. Ammo vijdoning qiynaladi, azoblanasan, afsuslanasan.

Zulxumor, maktubim poyonida sizga bir gapni aytmoqchiman:

Qayerda, qay holda bo'lmaylik inson degan ulug' maqomimizga dog' tushirmaslik asl g'alabamizdir! Hayot maydoni yashilmi, yashil emasmi – bu muhim emas. Muhimi ko'ngil obodligi, mehmuhab, ezuq amallarning bardavomligidir. Yashil maydon hodisalarini muhokama qilish uchun hayot maydonida siz bilan yana qayta uchrashishga umid bog'lagan holda sizga eng yaxshi tilaklarimni tilab qolaman.

Cheksiz hurmat va mehr ila kursdoshingiz Nizomiddin.

Nizomiddin MADRAHIMOV, O'zJOKU talabasi

O'y JAMIYAT – OVOZI BOR, TILI YO'Q "MAVJUDOT"

Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib jamiyat hayotiga yuzlanar ekanman, savollar ustiga savollar kela boshladi. Fikrlar oqimi tugamaydi, javoblar esa ko'rinmaydi. Go'yo jamiyatning ko'zga ko'rinmas qo'li telefon ekranidan ushlaydi-da, "Men haqimda o'ylab ko'r" deb imlab qo'ygandek. Ana shu payt tushunaman: jamiyat – shunchaki odamlar yig'indisi emas, biz yashayotgan ruhiy makon.

Jamiyat – ovozi bor, lekin tili yo'q "mavjudot". U hech qachon gapirmas-da, ovozinini eshitamiz. Go'yo katta sahnada turib, orqa tarafdagi shivir-shivirni tinglayotgandek. Aslida, uning tili – biz. U bizning fikrlarimiz bilan gapiradi, bizning qo'llarimiz bilan quradi, bizning sukutimiz bilan jimib qoladi. Agar biz o'zimizni o'zgartirsak, jamiyat tilga kiradi.

Jamiyat – vaqt bilan suhbatlashadigan ulkan organizm. Tomirlarida odamlar oqadi: ba'zisi issiq, ba'zisi sovuq, ba'zisi shoshqaloq, ba'zisi esa jur'atsiz. Bu oqim qanday yo'l bilan oqayotganini hech kim bilmaydi, ammo har birimiz o'zimizcha yo'nalish berayotgandek o'ylaymiz. Aslida esa jamiyat har bir harakatimizni yig'ib,

o'zining umumiy ritmini yaratadi.

Biz jamiyatni soddan narsalarda izlaymiz: shovqinli ko'chalarda, bahsli siyosatda, yangiliklarda. Ammo jamiyatning haqiqiy qiyofasi sukunatda yashaydi. Kechasi uyquga ketgan shaharlar, tongda hali uyg'onmagan ko'chalar – mana shu sokin manzaralar jamiyatning asl yurak urishidir. Chunki jamiyat odamlar gapirgan paytda emas, jim bo'lganida o'zini oshkor qiladi.

Ko'pincha jamiyat shunaqa deb o'zimizni undan chetga olamiz. Go'yo u bizdan mutlaqo ajralgan dunyo kabi gapiramiz. Ammo jamiyat – o'sha biz qo'qarandek. Aslida, uning tili – biz. U bizning fikrlarimiz bilan gapiradi, bizning qo'llarimiz bilan quradi, bizning sukutimiz bilan jimib qoladi. Agar biz o'zimizni o'zgartirsak, jamiyat tilga kiradi.

Jamiyat – vaqt bilan suhbatlashadigan ulkan organizm. Tomirlarida odamlar oqadi: ba'zisi issiq, ba'zisi sovuq, ba'zisi shoshqaloq, ba'zisi esa jur'atsiz. Bu oqim qanday yo'l bilan oqayotganini hech kim bilmaydi, ammo har birimiz o'zimizcha yo'nalish berayotgandek o'ylaymiz. Aslida esa jamiyat har bir harakatimizni yig'ib,

Maftuna RUSTAMOVA, O'zJOKU talabasi

Og'riq

DADAM VA MEN

Dadam bizni tashlab ketmagan. Axir buvim aytgan: "Mendek alpomish yigitni tashlab ketib bo'larmidi?!". Avval har ikki haftada kelib turardi, hozir oyda-yilda bir ko'raman. Aytishlaricha, ishlari ko'p ekan. Keyinchalik yangi oila quribdi, deb eshitdim. O'shanda rosa jahlim chiqqan.

Onam dunyodagi eng yaxshi ayol: "Bolam, xafa bo'lma, dadang seni judayam yaxshi ko'radi" deb ovutdi. Yaxshiki borlar. Tinmay mehnat qiladi, ustim toza, qornim to'q. Barchasi onamning tinimsiz harakatlari natijasi.

Maktabda "otang yo'q" deb bezori Sardor nuqul ko'nglimni og'ritardi. Hali qarab tursin, kelganida uning mahallasidan ataylab dadam bilan o'taman. Olib bergan shirinkliklarini maqtab-maqtab o'taman. O'shanda gaplariga pushaymon bo'ladi. Oxirgi marta kelganida:

– Dadajon, menga bitta velosiped olib bering, – deb so'radim.

– O'g'lim, velosipedni nima qilasan? Yiqilib tushsang oyog'ing sinishi mumkin. Qo'y, unaga xavfli narsalarning keragi yo'q, – dedi.

Keyin yangi oilasidan o'g'illi bo'lganini eshitdik. Negadir bu safar jahlim chiqmadi. Aksincha quvondim: endi ukam bor!

Oradan yillar o'tdi. Ukamni ko'rishni juda istardim. Bir kuni onam yetaklab dadamning yangi uyiga olib bordi. Eshikdan kirganimizda men ancha oldin olishni xohlagan velosipedlarning bir nechtasi qator turardi: oq, qora, ikki va uch g'ildiraklisi...

Ha, bular ukamniki... O'ylanib qoldim. Bilasizmi, dadam baribir meni ko'proq yaxshi ko'rar ekan, avaylarkan. Oyog'imga qayg'urib velosiped olib bermabdi. Ichimdan entikib qo'ydim.

...Dadam bizni tashlab ketmagan. Menday bolani tashlab ketib bo'ladimi?

Baronxon RAJABOVA, ToshDO'TAU magistranti

Qissadan hissa

KEMIRUVCHILAR SALTANATI

ko'pchilimiz bolaligimizda "Qunduz amakining ertaklari"ni miriqib tomosha qilganmiz. Mehribon Qunduz amakining pand-nasihatlari katta hayotga nisbatan qarashlarimizni bir qadar shakllantirgan. O'sha ertaklar orqali mo'jizaviy olamlarga g'oyibona sayohat qilganmiz. Ulardan eng yoqqani "Sichqonlarning nikoh to'yi" haqidagisi edi. Xo'sh, rostan ham o'sha sichqonlar biz bilgandek baxtli yashashar-midi? Yaxshisi, ertakka quloq tuting.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tigan zamonda... Nega qadim zamonda? Balki shu kunlardir. Shaharning bir chetida, uzoq emas yon-verida bir paytlar gullab-yashnagan fabrikada odil podsho boshchiligida sichqonlar hukmronligi o'rnatilbdi. U yer, albatta, vaqti zamoni-da yuksalish makoni edi. Ammo yovvoyi sariq mushuklar istibdodi-yu, hiyla-nayranglari tufayli yakson bo'ldi-qoldi. Odil podshoh esa hammasini qaytadan boshlash maqsadida yangi qonunlar joriy qildi. U o'ziga hammaslahat, fabrikani tiklash uchun hamroh bo'ladigan kalamushlarni tanlab olibdi. Afsuski, bu maskan atrofidagi kemiruvchilar orasida sichqonparvar, oqil kemiruvchi yo'q emish. Shohni avrab lavozimning eng ulug'i, "vazir" nomiga sazovor bo'lgandan keyin kurak tishlari yanayam kattalashib, qahrlari qattiqlashib boraveribdi. To'g'rida, butun boshli fabrikani boshqarishda ko'ngilchanlik ketarmidi? Shunday qilib, oddiy sichqonlarga yirtqichlardan xoli, pishloqlar serob bo'ladigan, tinch va farovon makon haqida ko'pdan ko'p va'dalar berila boshladi.

Fabrika qonun-qoidalari ijrosi hech bo'lmaganda qog'ozlarda aks etishi kerak. Shuning uchun avvalo qonun-qoidalar bilan shug'ullanadigan "Xo'ja ko'rsin" vazirligi tashkil qilinibdi. "Xo'jako'rsinchilar" shohning ishonchiga kirib, "bajar-miz" deb imzo qo'ydirib olishar ekan. Bajarishganda ham kalamushlarga foyda,

shohim, xalqingiz sizdan mingdan ming rozi. Siz sabab to'kin-sochin hayot kechirmoqdamiz. Sizga uzoq umr tilagan holda yana yuz yil fabrikamiz ustuni bo'lishingizni xohlaymiz". Bu qilg'iliqdan be-xabar ahli fabrika adolat ilinjida haftalarni oylarga, oylarni esa yillarga ulashar ekan. Har neki bo'lmasin, oddiy sichqonlarning arz-i hollari podshohning qulog'iga yetib borar, muhtaram shohning o'zi mehnatkash sichqonlar ahvolidan xabar olar, hatto uyma-uy qadam ranjida qilar ekan. Shu sababli adolat bir qadar o'rnatilarkan.

Bundan oldin esa ba'zi aqildan ko'ra kurak tishlari uzun kalamushlar va'zxonlik qilishadi, emishki: "yomon yashamaypimiz-ku, hech bo'lmaganda kemirishga qotgan nomimiz bor. Biz ham pishloqqa yetib qolarmiz. Och qornim, tinch qulog'im". Eng yomoni, sichqonlar o'sha oliy navli pishloqqa ming mashaqqat bilan yetishganlarida esa bosar-tusarlarini bilmay qolisharkan. Xuddi siz-u biz bilgan "Sichqonlar nikoh to'yi" kabi allambalo ziyofatchalar, sichqonbop yig'inchalarda bir kunda borini yeb qo'yishar ekan. Kunlari yana qotgan nonga qolganida esa "Osmom uzoq, yer qattiq".

To'rtinchi vazir ham podshohning ishonganlaridan, biroq panjasi egri "Cho'ntakka ur" vazirligining kattasi. G'amxo'r podshoh mehnatkash fabrika ahli yaxshi yashashi uchun har oy 5 tonna pishloq tarqatilishini farmon qilar ekan. Guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi ayrim katta lavozimdagi kalamushlar, "borida yeb olay, ertaga pishloq bormi, pishloq bo'lganda men bor bo'lamanmi?", degandek, yetmaganiga yashirin kovaklariga ham tashib olishar ekan. "Insof sari baraka" qabilida ish ko'rib, pishloqning tagi ko'rinib qolganda bas qilisharmish. Mushtdekkin, har-har joyida yirik tishlar izi bilinib qolgan pishloqni fabrikaga olib borib: "Bu oy sigirlarning ko'pi sudtan

qolgani sabab kam pishloq sotishyapti, undan tashqari dalada o'to'lan ham kamayib ketgan. Kelasi oylarda hammasi iziga tushib ketadi", der ekan. Haligi pishloqdan yegan yeb oladi, "riziq qirqilganlar" esa uzoqdan yutib qo'yisharkan.

Va nihoyat, so'nggi vazirlikka ham yetib keldik. Bular har besh yilda bir ko'rinib qo'yganlari uchun beshinchi bo'lishni tanlagan. Gappa usta bo'lganlari sabab "va'dabozlar" degan nomga ega bo'lishgan. Sichqonlar orasida eng ko'p hangomasi og'izdan og'izga yuradiganlari ham shular. O'z ichidan chiqib o'zlarinikini kemiradiganlari ham shular, aslida. Haqiqatan, u vazirlik ham bir paytlar yuqoridagi kemiruvchilardan ancha-muncha tazyiq ko'rib, muammolar ichida katta bo'lishgan. Boisi, bular ham oddiy sichqonlarning farzandi. Lekin mansab tegib odilgariga og' non qo'yilganda, hammasini unutib ko'rsichqon kabi so'qir bo'lib faqat yeyish, kemirishga o'tib ketdilar. Tishlari orasida nima chaynalayotganidan bexabar holatda vijdon, diyonatlarini ham allaqachon chaynab, hazm qilishga ham ulgurishgan ekan.

Oddiy sichqonlar ham, katta kalamushlar ham hammasi yomon, ko'zi och, yalqov bo'lsa, fabrikaning fabrikaligi qoladi deysizmi? Oddiy sichqonlar orasida hayot kurashishdan iborat ekanligi, kimdandir nimadir kutib, nolib yashash hayotiga yaxshi o'zgarish kiritmasligini biladiganlari, birovning haqi hech qachon birovga yuqmasligi, o'z qo'nalg'asining ravnaqi uchun xizmat qilsa, qo'ni ham chetda qolib ketmasligini angelaydiganlari bor ekan, fabrika muvozanati buzilmaydi, butkul tubanlikka yuz tutmaydi.

Ertagimiz butkul yaxshilik bilan tugamagan bo'lsa ham hammasi yaxshi bo'lishiga umid bog'laymiz.

Javohir NE'MATOV, O'zDJTU talabasi

JURNALISTIKA MENI TANLADI

Taqdir insonni turfa yo'llardan o'tkaza-di. U yo'llar ba'zan sinov, ba'zan esa yangi hayot sahifasini ochadi. Har bir inson hayotida burilish nuqtasi bo'ladi, kimdir bu lahzani kechroq, kimdir erta anglaydi. Men uchun bu lahza "jurnalistika" so'zida yashiringan edi. Chunki jurnalistika men tanlagan kasb emas, u meni tanladi.

Bolaligimdan so'z qudratiga, his-tuyg'ularni so'z bilan ifoda etish kuchiga qiziqardim. Men uchun yozish – o'zimni anglash, dunyoni tushunish va boshqalarga hayot haqidagi o'ylarimni yetkazishning eng go'zal shakli edi. Biroq ota-onamning istagi bilan huquq sohasiga tayyorlan-boshladim. Maktabni bitirib, Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litseyga qabul qilindim. Bu o'sha payti katta g'alaba edi, ammo ich-ichimdan menga nimadir yetishmayotgandek bo'lardi. Har kuni qonunlarni o'rganar, lekin yuragimda insonlarning hikoyalari, ularning og'rig'i, quvonchi, orzulari haqida yozish istagi so'nmas edi.

Hayot sinovlari meni boshqa sahifaga olib o'tdi. Oila qurdim, yangi mas'uliyatlar paydo bo'ldi, ammo bu kutilmaganda orzularimni to'xtatmadi, aksincha menga kuch bag'ishladi. Bir kuni qaynonam shunday dedi:

– Sizda jurnalistikka iqtidor bor. Odamlarni eshita olasiz, ularning ichki

dunyosini his qilasis.

Qaynonam qalbmidagi ochilmay qolgan eshikka kalit solgandek bo'ldi. Ichimdagi bo'shliq shu dedim va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakultetiga hujjat topshirdim.

Jurnalistika – shunchaki kasb emas. Bu – hayot tarzi. Jurnalist odamning dardi, quvonchi, orzulari, haqiqat uchun kurash bilan yo'g'rilgan. U har bir so'zni mas'uliyat bilan tanlaydi, chunki bu so'z kimningdir taqdirini o'zgartirishi mumkin. Men bu yo'lni tanlaganidan, aynan shu mas'uliyatni his qilgan edim. Chunki jurnalist jamiyatning ko'zi, qulog'i va yuragidir. U yolg'onni fosh etadi, haqiqatni yoritadi, jim qolgan ovozlarga quloq bera-di.

Bugun men nafaqat jurnalistika fakulteti talabasi, balki ona, rafika, farzandman. Ammo ayni paytda orzularining ortidan ketayotgan ayolman. Har bir dars, topshiriq, suhbat menga hayot saboqlarini beradi.

Ba'zan kechikkan qarorlar eng to'g'risi bo'ladi. Jurnalistikani kech tanlagandek ko'rinsam ham, aslida u meni o'z vaqtida topdi. Chunki bu soha orqali o'zimni, o'z ovozimni topdim.

Sabrina QURBONOVA, O'zMU talabasi

Qaror va ijro

DEMOKRATIK TARAQQIYOT YO'LIDA

Demokratik jamiyatning muhim belgilaridan biri – davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda xalqning bevosita va bilvosita ishtirok etishidir. Bu ishtirok referendum va saylov orqali amalga oshiriladi hamda xalq davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatini nazorat qiladi. Xususan, O'zbekiston va Turkiya davlatlari mustaqillikka erishgach aynan demokratik saylov tizimini shakllantirishda muhim islohotlarni amalga oshirdi. Bugungi kunda har ikki mamlakatda saylovlarning ochiqligi, shaffoligi va fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash borasida qonunchilik hujjatlari ishlab chiqildi. Shu bilan birga, bu ikki davlatning tarixiy rivojlanish yo'li, siyosiy tizimi va davlat shakllari turlicha bo'lgani sababli ularning saylov qonunchiligida ayrim o'xshashliklar bilan bir qatorda uncha katta bo'lmagan farqlar ham mavjud.

Xususan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, saylov jarayonlari majoritar saylov tizimi asosida o'tkazilgan. Bu tizimda ovozlarning umumiy soni bo'yicha mutlaq ko'p ovoz olgan nomzod saylangan hisoblangan. Biroq bugunga kelib davlatimizning saylov sohasida o'tkazgan islohotlari natijasida aralash saylov tizimiga o'tildi. **Aralash saylov tizimi** deputatlik mandatlarining bir qismi hukumatning barqaror shakllanishiga hissa qo'shadigan majoritar tizim tamoyillari bo'yicha, ikkinchi qismi esa proporsional tizim tamoyillariga muvofiq taqsimlanadi.

Turkiyada bo'lsa biroz boshqacharoq, ya'ni ular proporsional saylov tizimi asosida hokimiyatni tashkil qiladi. Bu saylov tizimi qolganlaridan ko'ra ancha murakkab hisoblanadi. **Proporsional saylov tizimida** saylovchilar aniq bir shaxsga

emas, balki partiyaiga ovoz berishadi. Har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi. Bunda saylovchilar tegishli partiyalar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ro'yxati uchun ovoz beradi.

Bu ikki davlatning saylov jarayonlarini tartibga soluvchi qonunchilik manbalariga qaraydigan bo'lsak, ikkala davlat ham aynan roman-german huquq oilasiga mansub va qonunchilikda o'ziga xos o'xshashliklar bor. Masalan, Turkiya Konstitutsiyasining 67-moddasida saylovga doir norma keltirilgan. Unga ko'ra, qonunda belgilangan shartlarga muvofiq fuqarolar saylash, saylanish, siyosiy faoliyat bilan mustaqil ravishda yoki siyosiy partiya orqali shug'ullanish va referendumda ishtirok etish huquqiga ega. Bundan tashqari, 1961-yil 26-aprelda qabul qilingan "Saylovlarning asosiy qoidalari va saylov ro'yxati to'g'risida"gi qonunning 2-moddasiga ko'ra "Saylov erkinlik, tenglik va umumiy, to'g'ridan to'g'ri saylov asosida o'tkaziladi. Ovozlar yashirin ovoz berish yo'li bilan beriladi. Ovoz berish ochiq holda amalga oshiriladi" deb belgilab qo'yilgan. Ushbu norma davlatimiz Konstitutsiyasining 128-moddasidagi "Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi" deb belgilangan qoidaga mutlaq mos tushadi.

Shunday qilib, O'zbekiston va Turkiya mamlakatlari tajribasi o'zaro o'rganish uchun muhim metodologik asos bo'lib, ke-lajakda saylov tizimlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mirkomil YORBOBOYEV, TDVU talabasi

Fasl tanlovi

“Faslning eng yaxshi ijodkori” tanlovining (2026-yil, qish) nominatsiyalari bo‘yicha g‘oliblar bilan tanishing. “Ma’rifat” gazetasi sizning har bir ijodiy ishingizni qadrlaydi. Ijod qilishdan to‘xtamang. Mualliflarni faollikka chorlaymiz.

Qish fasli g‘oliblari

T/r	Tanlov yo‘nalishi	Taklif etilayotgan maqola nomi (sanasi)	Muallif
Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig‘i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.			
1.	“Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola”	“Ta’lim falsafasi” (18.02.2026)	Xudoyberdi KOMILOV, O‘zbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi
2.	“Pedagog-muallifning dolzarb materiali”	O‘zbek tilini raqamlashtirish (28.01.2026)	Baxtiyor MENGLIYEV, filologiya fanlari doktori, professor
3.	“Eng yaxshi ocherk yoki esse”	“Machaylik yigit” portretiga chizgilar (18.02.2026)	Talant TOLERANT
4.	“Ta’lim-tarbiyaga oid amaliy taklif”	Otajonim o‘gitlari: bir muallimdan ming muallimga (21.01.2026)	Rahmatilla KARIMOV, Uchtepa tumanidagi 81-IDUM matematika fani o‘qituvchisi, O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi
Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig‘i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.			
5.	“Voqelikka munosib sharh yoki munosabat	Yosh avlod – Yangi O‘zbekistonning strategik kapitali (31.12.2025)	Shahnoza AKRAMOVA, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrası boshlig‘i o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor, podpolkovnik
6.	“Mazmunli intervyu, suhbat”	Maktabda psixologik xizmat: o‘quvchi ruhiy salomatligi doimiy nazorat talab qiladi (4.02.2026)	Shohsanam MAHMUDOVA
7.	“Sermazmun sahifa”	O‘qituvchi ijarada tursa... (21.01.2026)	Ijaradagi O‘QITUVCHI
8.	“Samarali metodik material”	“Farhod va Shirin” dostonini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘rganamiz (03.12.2025)	Hulkaroy AZIMOVA, Baliqchi tumanidagi 50-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
9.	“O‘qishli badiiy asar”	“Men”lar jangi (31.12.2025)	O‘rtancha MEN
Tanlovning quyida keltirilgan nominatsiyalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig‘i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.			
10.	“Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material”	823-qarordagi o‘zgarishlar: ijodkor o‘qituvchi rag‘batlantirilishi zarur (25.02.2026)	Sayyora YORQULOVA, Olmaliq shahridagi 14-maktabning boshlangich sinf o‘qituvchisi
11.	“Eng yaxshi tarjima materiali”	“Ishq maktublari” (Rashod Nuri GUNTEKIN) (31.12.2025)	Rahmat BOBOJON tarjimasi
12.	“Talaba-jurnalistning yorqin publitsistik ishi”	“Jannatlarda ko‘rish-guncha” (10.12.2025)	Javohir NE‘MATOV, O‘zDJTU talabasi
13.	“Jozibali fotolavha yoki surat”	“Mahalla gulga, ko‘ngillar nurga to‘lsin!” (31.12.2025)	Nazira BOYMURODOVA

Izlanish va samara

Ta’lim va tashabbus uyg‘unligi

Muborak Toirova – hayotini ta’lim va ma’rifatga bag‘ishlab, yoshlarga ibrat bo‘lib kelayotgan pedagoglardan biri. Ta’lim sohasiga bo‘lgan qiziqish uni Samarqand pedagogika kollejiga yetakladi. 2009-yili ushbu bilim maskanini muvaffaqiyatli tamomlab, 2010-yildan mehnat faoliyatini Nurobod tumanidagi 45-maktabda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sifatida boshladi. Qisqa vaqt ichida o‘quvchilarga individual yondashuvi, zamonaviy pedagogik usullardan samarali foydalanishi bilan jamoa va ota-onalar e’tiborini qozondi.



Kasbiy salohiyatini doimiy ravishda oshirib borishni hayotiy tamoyiliga aylantirgan qahramonimiz 2017-yili Samarqand davlat universitetining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi, 2021-yili esa maktabgacha ta’lim mutaxassisligini muvaffaqiyatli tamomladi. Shu yildan e’tiboran tumandagi 15-davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Uning tashabbusi va homiylar ko‘magida Nurobod tumani “Jom” mahallasi hududida yangi suv inshooti barpo etildi. Ushbu loyiha natijasida hududdagi umumta’lim maktabi, maktabgacha ta’lim tashkiloti, madaniyat uyi, mahalla fuqarolar yig‘ini, “Jom” dehqon bozori hamda qariyb ming nafar aholi toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi. Yelkangizda shuncha mas’uliyatli ishlar bo‘laturib, homiylarga murojaat qilib suv chiqarish tashabbusiga bosh bo‘lish sizni charchatmadimi, degan savolimizga qahramonimiz quyidagi she’riy satrlar bilan javob berdi:

Chaman bo‘lsa bo‘lsin men deb,
Rahmat desa bas otangga.
Tetapoya qildirgan el,
Jonim sadqa shu Vatanga.

Darhaqiqat, qahramonimiz ta’lim sohasidagi qizg‘in faoliyati bilan bir qatorda qalam ham tebratadi:

Sharqiraydi daryolari,
Tog‘larida haybat bor.
Gul unmagan fasli yo‘q,
Tabiati fusunkor.

Muborak Toirovaning ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid ilmiy ishlari respublika va hududiy ilmiy nashrlarda e’lon qilingan. Ushbu maqolalar pedagogik tajribani umumlashtirish va amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, uning faolligi, tashabbuskorligi va fidokorona mehnati munosib e’tirof etilib, turli yillarda faxriy yorliq, tashakkurnomalar bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, 2011-yildan buyon “Zakovat” intellektual o‘yinida mualliflik savollari bilan faol ishtirok etib kelmoqda. 2021-yili viloyatlar kesimida o‘tkazilgan tanlovda “Yilning eng kuchli savol egasi” nominatsiyasini qo‘lga kiritib, 21 million so‘m pul mukofoti sohibasiga aylandi.

Bugun Muborak Toirova – bilim, tajriba, tashabbus va intellektni uyg‘unlashtira olgan, ta’lim hamda jamoatchilik hayotida faol ishtirok etayotgan fidoyi pedagog va rahbar sifatida e’tirof etilmoqda.

Mavluda BOYCHAYEVA,
O‘zJOKU talabasi



Tadqiqot

Sarlavha tarjimasi muhimmi?

Sarlavha – badiiy asarning birinchi taassuroti. Unda baʼzan butun bir asarning mazmuni aks ettiriladi. Nasr sanʼatining kuchi, eng avvalo, anqlik va ixchamlikda namoyon boʻladi. Bunday sifat yozuvchidan teran tafakkur va masʼuliyatni talab etadi, chunki gʻoyasiz bitilgan goʻzal matn oʻz qadrini yoʻqotadi. Asar nomi kam soʻz bilan butun matn mohiyatini ifodalab, dastlabki daqiqadayoq oʻquvchining qiziqishini uygʻotadi. Asar nomi kam soʻz bilan butun matn mohiyatini ifodalab, dastlabki daqiqadayoq oʻquvchining qiziqishini uygʻotadi. Asar nomi kam soʻz bilan butun matn mohiyatini ifodalab, dastlabki daqiqadayoq oʻquvchining qiziqishini uygʻotadi.

Notoʻgʻri yoki sust sarlavha tarjimasi asarning asl mazmunini buzib koʻrsatishi, oʻquvchini chalgʻitishi, hatto uning asarga boʻlgan qiziqishini pasaytirishi mumkin. Sarlavha matnga yoʻl ochuvchi kalit boʻlgani sababli undagi har qanday noaniqlik yoki yuzakilik oʻquvchi ongida asar haqida notoʻgʻri tasavvur uygʻotadi. Shu bois sarlavha tarjimasi mazmunan aniq, usluban uygʻun va badiiy ruhga mos boʻlishi muhim ahamiyatga ega.

Badiiy asar sarlavhasi muhim semantik (maʼnoviy) va estetik (badiiy-tasviriy) yuk tashiydi hamda unda asarning gʻoyaviy yoʻnalishi, muallif niyati va badiiy-taʼsiriy kuchi mujassam boʻladi. Sarlavha koʻpincha faqat ochiq maʼnoni emas, balki ramziy, kinoyaviy va metaforik qatlamlarni ham oʻz ichiga oladi hamda muayyan madaniy kontekst bilan chambarchas bogʻliq holda shakllanadi. Shu bois badiiy sarlavhani tarjima qilish jarayonida soʻzma-soʻz tarjima aksar hol-

larda uning ichki mazmuni, estetik ohangi yoki ramziy kuchini toʻliq aks ettira olmaydi. Tarjimon bunday vaziyatlarda leksik moslikdan koʻra semantik va badiiy muvofiqlikni ustuvor qoʻyishi, sarlavhaning kitobxon ongida uygʻotadigan taʼsirini qayta yaratishga intilishi lozim. Masalan, Jorj Oruellning *“Animal Farm”* romanining oʻzbek tiliga *“Molxona”* tarzida tarjima qilinishi soʻzma-soʻz ekvivalent tarjima boʻlmasa-da, asardagi markaziy ramz va allegorik mazmunni saqlab qolishga qaratilgan badiiy tarjima hisoblanadi. Bu holatda tarjimon *“farm”* tushunchasining lugʻaviy mosligidan koʻra, asarda tasvirlangan hokimiyat, zulm va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi ramziy makonni oʻzbek madaniy tasavvuriga yaqinroq shaklda berishga erishgan. Bu asarning *“Hayvonlar xoʻjaligi”* nomli sarlavha bilan tarjimasi ham mavjud boʻlib, mazkur variant asl nomga leksik jihatdan yaqinroq hisoblanadi. Biroq ushbu tarjimada sarlavhaning ramziy va kinoyaviy qatlamlari nisbatan sustroq ifodalanadi. *“Xoʻjalik”* soʻzi asar voqealari makonini aniq koʻrsatib bersa-da, undagi ijtimoiy-siyosiy allegoriya va keskin badiiy ohangni yetarli darajada ochib bera olmaydi. Aksincha, *“Molxona”* sarlavhasi hayvonlarning ekspluatatsiya qilinishi, ularning shaxs emas, balki mulk va ishlab chiqarish vositasi sifatida talqin etilishi gʻoyasini kuchliroq ramziy ifodalaydi. Shu sababli bu variant asardagi zulm, hokimiyat va tengsizlik masalalarini oʻzbek kitobxoniga yanada taʼsirchanroq tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

Milliy-madaniy adaptatsiyaning ahamiyati. Sarlavha tarjimasida tarji-

mon milliy, tarixiy, diniy va madaniy xususiyatlarni inobatga olishi zarur. Har bir til va madaniyatda ayrim obraz, tushuncha yoki ramzlar turlicha qabul qilinadi. Agar tarjimon manba tilidagi kontekstni tarjima tilidagi madaniy muhit bilan moslashtira olmasa, sarlavha oʻquvchi uchun begona, noaniq, hatto maʼnosiz boʻlib qolishi mumkin. Shu bois badiiy tarjimada sarlavha koʻpincha adaptatsiya qilinadi, yaʼni u asl matnga sodiq qolgan holda, madaniy jihatdan tabiiy va tushunarli eshitisli koʻzda tutiladi. Bu jarayonda tarjimon faqat tilshunos emas, balki madaniyatlararo vositachi sifatida ish yuritadi.

Marketing va oʻquvchi psixologiyasi omili. Sarlavha tanlashda faqat badiiy mezonlar emas, balki marketing va oʻquvchi psixologiyasi ham muhim rol oʻynaydi. Nashriyot nuqtayi nazaridan sarlavha kitobning sotuv hajmiga, oʻquvchi auditoriyasining qamrovi va asar haqidagi dastlabki taassurotga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Baʼzan sarlavha badiiy jihatdan mukammal boʻlsa-da, keng omma uchun jozibador boʻlmasligi mumkin. Shunday holatlarda nashriyot yoki tarjimon strategik qaror asosida oʻquvchini jalb qiladigan, esda qoladigan mosroq variantni tanlaydi. Natijada sarlavha nafaqat badiiy belgi, balki kommunikativ va tijoriy vositaga ham aylanadi.

Badiiy asar sarlavhasi nafaqat nom, balki asarning mazmuni, gʻoyasi va badiiy ruhini ifodalovchi muhim unsur hisoblanadi. Tarjima nazariyasida sarlavha paratekstning bir qismi sifatida qaraladi, u oʻquvchini matnga tayyorlaydi, uning qabul qilishini yoʻnaltiradi va matnga

boʻlgan birinchi taassurotni shakllantiradi. Shu bois badiiy tarjimada sarlavhani soʻzma-soʻz tarjima qilishdan koʻra, uning semantik, estetik va madaniy mazmunini saqlash muhimdir.

Zamonaviy tarjimashunoslikda sarlavha muallif, tarjimon va nashriyot manfaatlari kesishadigan nuqta sifatida baholanadi. Shu bois tarjimon sarlavhani tanlashda lingvistik anqlik bilan birga madaniy, estetik va kommunikativ jihatlarni ham hisobga olishi lozim.

Oʻzbek adabiyotidan ingliz tiliga tarjimalarda ham shunga oʻxshash yondashuv kuzatiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning *“Oʻtkan kunlar”* romani ingliz tilida *“Bygone Days”* yoki *“The Days Gone By”* nomlari bilan berilib, nostalgik ohang va tarixiy xotirani saqlab qolgan. Pirimqul Qodirovning *“Yulduzli tunlar”* asari *“Starry Nights”* nomi bilan tarjima qilinib, sarlavhaning poetik va ramziy tabiatini ingliz kitobxoniga yetkazgan. Uning falsafiy va umumiy mazmuni maʼnoviy ekvivalent orqali ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy sarlavha tarjimasi – bu soʻzlarni koʻchirish emas, balki asarning badiiy ruhini, ramziy va estetik taʼsirini boshqa tilda qayta yaratish jarayonidir. Tarjimon esa bu jarayonda oddiy tarjima qiluvchi emas, balki matn va oʻquvchi oʻrtasida mazmunli va samarali koʻprik vazifasini bajaruvchi ijodkor boʻlishi kerak.

Farangiz ZOKIROVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti
universiteti Tarjima nazariyasi va
amaliyoti(ingliz tili) taʼlim yoʻnalishi
3-kurs talabasi

Kechinma

BIR UMR OʻRGANILADIGAN USTOZ

Eski kundaligimni varaqlab oʻtirarkanman, tugallanmay qolgan bir maktubga koʻzim tushdi. Unda na manzil bor, na ism. Ammo har bir satri meni aniq bir manzil sari yetakladi. Bu manzil – dardini ichiga yutib yashaydigan, sirlarini sukut bilan berkitgan, hayot maktabida menga ilk darsni bergan inson qalbi edi, yaʼni otam....

Atrofimizda bizga ustozlik qilgan insonlar koʻp. Ammo yurak tan olgan, taqdir tanitgan ustozlar sanoqlidir. Men uchun ana shunday ustoz – otam. U menga nafaqat yurishni, balki yiqilganda qanday turishni, yoʻqotganda qanday chidashni, sukut saqlaganda qanday kuchli boʻlishni oʻrgatdi.

Otasi uchun hali-hamon yosh, begʻubor qiz boʻlib qolayotgan farzand bugun yangi hayotga qadam qoʻydi. Bu yoʻlda yurganim sari otamning mehri, sabri ortida qanday ulkan muhabbat yashiringanini tobora chuqurroq his qilyapman. Anglayapmanki, hayot menga qanchalik koʻp savol bersa, otam menga shunchalik koʻp javob berib kelgan ekan. Va hali ham oʻrganishim kerak boʻlgan saboqlar bisyor...

Kecha jajji qoʻllaridan mahkam ushlab, yoʻlini koʻrsatib yurgan qizingiz bugun ulgʻaydi, dada! Ammo tanam ulgʻaygan boʻlsa-da, qalbim hamon otamning bir ogʻiz nasihatiga muhtoj. Ulgʻaygan sari otalarimizga yanada mustahkam bogʻlanib boraverar ekanmiz. Hayot murakkablashgan sari otaning borligi eng katta tayanchga aylanarkan. *“Rahmat”* deya aytish juda oson, biroq bu soʻz otalarning butun umr qilgan fidoyiligini ifodalashga yetmaydi. Otam hayot maktabida yoʻl koʻrsatuvchim, eng qorongʻi damlarda ham yoʻlimni shamchiroqdek yoritgan qahramonimdir!

Maftuna RUSTAMOVA,
OʻZJOKU talabasi

Millat mulki

Oʻzbek musiqa sanʼati oʻzining nafisligi, nolalari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, maqomlarimizni tinglasangiz, ilhom olasiz. Qaygʻuli nolalar koʻngil boʻshatishga, shoʻxchan ohanglar esa raqs tushishga undaydi. Xullas, milliy musiqalarimiz milliy boyligimizdir.

Maʼmurjon Uzoqov, Joʻraxon Sultonov, Komiljon Otaniyozov, Murodjon Ahmedov, Tavakkal Qodirov, Faxriddin Umarov kabi ustoz hofizlar oʻzlaridan oʻlmas taronalar qoldi-

“MUSTAHzOD”NING NOLASI

rishgan va bugungi kunda ham bu qoʻshiqlar yashab kelmoqda.

Chokar gʻazali va Muhammadjon Mirzaev musiqasi asosida kuylangan gʻoyat goʻzal *“Mustahzod”* qoʻshigʻi butun xalqimiz qalbidan chuqur joy egallagan oʻlmas taronadir. Sevimli hofizimiz Maʼmurjon Uzoqovni bu qoʻshiqning ilk ijrochisi sifatida hurmat bilan tilga olamiz.

Fikrimcha, ushbu ashulaning eng kulminatsion qismi – avjdir. Avj pallasi inson qulogʻini qomatga keltirish, dil torini cherta olish kuchiga ega. Keyingi yosh xonandalar ijrosida ushbu avj qismiga yana boshqa nolani ham qoʻshish

holatlari kuzatilmoqda. Eʼtiborimni tortgan jihat ham shu. Xoʻsh, bu qanchalik toʻgʻri?

Oʻzbekiston Qahramoni, ustoz sanʼatkor Munajat Yoʻlchiyevaning taʼkidlashicha, *“Mustahzod”* qoʻshigʻining avj qismiga qoʻshilgan nola aslida *“Jonon boʻlaman deb...”* nomli ashula nolasi hisoblanadi. Sanʼatkorning ustози – Shavkat Mirzaev yosh xonandalarning bunday tarzda ijro qilganiga nisbatan *“Ikki qoʻshiqning nolasini bir-biriga qoʻshib kuylanishi notoʻgʻri”*, deya eʼtiroz bildirgan ekan. Bu esa *“Mustahzod”* qoʻshigʻining asl ijrosiga zid hisoblanadi.

Sanʼat ixlosmandlari *“nima farqi bor, ijro ajoyib chiqqan”*, deyishlari tabiiy. Lekin bu yerda bir ijro yoʻlining oʻzgarishi kuzatilmoqda. Maʼmurjon Uzoqovning ijrosini tinglasangiz, bu avjni eshitmaysiz.

Ushbu masalani koʻtarishdan maqsad, kela-jak avlodga musiqalarimizning asliyatini yetkazish. Xonandalarimizdan ushbu qoʻshiqni ijro qilishda asl ijroni qoʻllashlarini iltimos qilardim. Aks holda bu ikki qoʻshiqning *“chatishtirib”* yuborilishi oqibatida kelgusida ixtiloflar kelib chiqishi mumkin.

Ziyodulla HAMIDULLAYEV,
ToshDOʻTAU talabasi

Hikoya

Sukunat ovozi sukutga oshiqlik eshitadi.

Muallif

Masjid to'la odam. Ovozida g'am bilan quvonch aralashgan Amin minbarga chiqdi. Atrofga ohista nazar tashlab gap boshladi:

– Ey mo'minlar, bilasizlarmi... farzandning yomonlikdan qaytishiga ham, najotiga ham ona duosi sabab bo'ladi. Farzandni eng avval duo qiladigan – onadir. Agar farzand zulmatda adashsa, uni faqat ona duosi topib keladi.

Sukutga cho'mgan masjid ahli ovozidagi titroqni yaqqol his etdi. Bu titroq Amin tortgan azobning asorati edi. U davom etdi:

– “Qori aka, farzandimga duo bering, xuddi sizday ikita universitetni tugatgan ahli ilmlardan biri bo'lsin” deb kelayotganlar, bir narsani bilib oling, farzandingiz uchun avvalo ayolingiz duo qilsin. Negaki, onaning duosi ijobat, insha Alloh. Onaning duosi – qo'riqchi devor. So'ng o'zingiz duo qiling. Keyin bizdan duo talab qilsangiz mayli.

Aminning bu gapi masjid ahliga ma'qul bo'ldi. Ammo masjiddan tashqariga chiqib fitnaga aylandi. Har kimning o'z kushandasi bor, imomning ham. Qildan qiyiq axtarib, uni beobro' qilish payida yuradigan bir-ikki nokas, shu gapdan malomatga sabab topdi. Sartaroshxonadagi o'n-o'n besh erkak shunday malomatchilarga aylandi.

– Masjidda imom o'tgan Amin bolalarni “avval onalari duo qilsin” debdi. Xuddi o'zining duosi oltin kabi qimmatday.

– Kim o'zi u? Onasi o'lganda qayerda bo'lganini bilasanmi?

– Yo'q, qayerda bo'lgan?

– Eee, so'rama.

– Shaxsan men undan ikki dunyodayam bolam uchun duo so'ramayman. Imommish, darbadar edi bir vaqtlar. Buning ustiga uylanmagan ham.

Eshitganman, imom bo'ladigan odam uylangan bo'lishi kerak...

Qishloqning bir chetida hangoma bahona jamlangan bir to'p xotin ham qayrag'och soyasida pista chaqib Aminning gapini muhokama qildi.

– Ha, to'g'ri, – dedi atrofida og'ziga termulib turganlardan ko'ra o'zini aqlli deb o'ylaydigan Salomat. – Onaning duosi o'tadi. Mulla to'g'ri aytgan.

– Voy Salomat, – dedi hamisha uning gapiga bir qo'shimcha qo'shib qo'ymasa ko'ngli joyiga tushmaydigan Roziya. – Xo'jayinim aytdi, u bir vaqtlar g'irt betayin bo'lgan ekan. “Ota-onasi ham o'lib ketgan” dedi.

– Qo'ysangiz-chi, Roziya. Onam tanigan bobosini. Sharif xattotning nabirasi u. Bobosi mohir xattot, onasi ham taqvodor, ilimli ayol bo'lgan.

Pista chaqib og'zi tinmagan ayollar erlari chaqirmasa, Xudo biladi, yana qancha o'tirishar edi.

– Roziya, sigirmi sog'dingmi? Kir-ey uyga, ko'mirchining qizi, – degan zardali ovozdan so'ng barcha ayollar tirqirab tarqay boshladi...

El ichida sang'ib yurgan bunday gaplarni eshitgan Hikmat xattotning o'g'lining xayolidan shunday gaplar o'tdi:

“Aminjonning gapini anglagan bor, anglamagan. Otamning qo'lida ishlagan bir vaqtlar. Juda ilimli, iqtidorli bola. Yo'li ochiq bo'lsin”.

G'iybatlarni Amin ham eshitdi, eshitdi-yu jilmayib qo'ydi. Odamlar uning dardini, kechinmalarini qayerdan bilsin?!

O'sha kuni kechasi Amin eski, ammo xotiralarga to'la uyida o'tirib, minbarga aytgan so'zlarini yana bir bor mulohaza qildi. So'ng o'tirgan alfozda devorga suyanib ko'zlarini yumdi...

O'tmish uning uchun og'riqli. Amin har gal ko'zlarini yumib, uyida yolg'iz qolganda xotiralar olamiga yetaklovchi bu eshikdan ichkari hatlashga mahkum...

Bobosi ham, otasi ham xattot, bo'lganda ham eng mohiri, yana Qur'on hofizi. Ularning uyida har tong, har oqshom fayz, baraka va iliq nur bo'lardi. Dasturxon atrofida jam bo'lgan butun oila ahli ilmga munosib bir tarzda suhbat qurardi. Aminning ismini ham otasi qo'ygan.

Amin besh yoshga to'ldi. Uning yelkalarida onasining qo'llarining, mehrining tafti bor edi. Ammo onayizorning boshiga osmon quladi, go'yo. Bobosi, buvisi, “jon” deb suyгани – otasi avtohalokatda jon berdi.

Butun borlig'i onasi deb bilgan Amin, murg'ak ongida bu baxtsizlikni to'la his qilgani yo'q. Faqat gohida otasining ovozi, taftini, bobosining erkalashlarini, buvisining quymoqlarini qo'msab yig'lab qolardi xolos.

O'sha kundan boshlab onasining yelkasiga dunyoning jami yuki osildi. Ona qorako'zini shabadadan ham himoya qildi. Uning erkali, futbol o'ynashi, ohista yiqilishi, hatto hovlidagi balandroq ovozi ham onani xavotirga solar edi. Shu tarzda yillar o'tib, Amin o'n beshga kirdi. Ana shundan keyin onayizorning girdikapalakligi unga erish tuyula boshladi.

– Qiz bolamanmi sizga? Muncha papalaysiz, – derdi gohida onasiga dag'allik qilib. Ba'zan esa onasiga so'zsiz itoat qilardi.

– Bobongning hunarini davom ettir. Xattotlik seni asraydi, bolam. Uydan yiroqlama. Yuzingdagi nur xira tortmasin, – dedi unga onasi bir kuni. So'ng qo'llarini duoga ochdi: – Ollohim, o'g'limni o'z yo'lingdan toydirma! Uning qalbiga haqiqatning nolasidan, giryon bo'lib tebranadigan oshiqlik berki, zulmatda qolsa shu nola sabab yo'lini topsin, omin.

ONA DUOSI

– Nola, oshiqlik... nima u ona? Esimni tanibman-ki hamisha shunday duo qilasiz. Bir kamim to'yma-to'y yuradigan otarchi bo'lishimmi endi, – dedi duo ma'nosini anglamagan Amin.

Ona javob qilmadi, mayin jilmaydi xolos. Bu tabasum ortida farzand taqdiridan xavotir yashiringan. Shuning uchun kecha-kunduz shu duoni takrorlaydi. Bu duo – Aminning taqdirini yozayotgan qalam edi, go'yo.

Amin mahalladagi Hikmat tog'aga bobo kasbini o'rganish uchun xattotlikdan shogird tushdi. Bu hunar unga og'ir tuyulsa-da, ichidagi bo'shliqni to'ldirib turardi. U yetti yil shu tasalli bilan yashadi.

Ustoz o'z shogirdlarini goh Buxoro, goh Samarqand, goh boshqa viloyatlarga olib borar, sayyohlar gavjum joylarda o'zlarini nusxa olgan xattotlik namunalarini sotishar edi. Bu safar ham shu maqsadda yo'lga otlanishdi. Ona uni kuzatar ekan, ko'zlarini yoshlanib yana o'shanday duo qildi:

– Ollohim o'g'limni o'z yo'lingdan toydirma! Uning qalbiga haqiqatning nolasidan giryon bo'lib tebranadigan oshiqlik berki, zulmatda qolsa shu nola sabab yo'lini topsin, omin.

Ammo bu safar taqdir ularga boshqacha yozuq bitgan, qutlug' duo ayрилиq hidini olib uchgan ekan...

Safardan qaytayotgan Amin bilan hamrohlari to'ntarilib ketgan avtobusni ko'rib yordam ko'rsatish uchun to'xtashdi. Avtobusdagi o'n ikki nafar maktab o'quvchisidan sakkiztasi vafot etgan. Hikmat tog'a bilan tez tibbiy yordam chaqirib, avtobusdagi bolalarga yordam berib o'sha yerda ancha ushlanib qolishdi. Bu voqeaning tafsiloti esa qishloqqa chalkash bo'lib yetib keldi.

– Bechora Hikmat tog'a bilan shogirdlari tushgan avtobus halokatga uchrab, hamma o'libdi...

Bevaligini ham unutib o'g'li uchun yashayotgan onani bu xabar yiqitdi. Go'yoki, Amin bo'lmagan dunyoda unga ham joy qolmadi...

Eson-omon uyga qaytgan Aminni sukut kutardi. U onasini yo'qotganini bilgan lahza, ichida bir ip uzilgandek bo'ldi. O'sha kundan boshlab Amin boshqa Aminga aylandi. U hali to'la er yetmagan, bir go'zal chehrasi xotirasiga soya solmagan, yor tanasining taftini emas, ona mehrini afzal bilgan bir yoshda yolg'iz qoldi. Yig'lay olmadi. Ko'krak qafasining ichida nimadir potirlab, bezovta bo'ldi. To'lgan, ammo tosholmayotgan idishday edi go'yo.

O'sha kundan boshlab ichida bir g'ashlik in qurdi...

Oy ketini yil quvalab, qancha zamonlar o'tdi. Amin o'zligini ham, kimligini ham unutdi, go'yo. Hech kim, hech narsa unga yordam bermadi. U bir vaqtlar o'zidagi bo'shliqni to'ldirib turgan xattotlikni ham tashlab qo'ydi...

Bir kuni o'zidan qochish uchun qaytmas joyga ketishga qaror qildi. Onasidan qolgan zirak bilan uzukni sotib Turkiyaga bilek oldi. Turkiyadagi havo qo'nalg'asiga tushgach, yana qayergadir uchgisi keldi. Ammo qayerga?..

Qo'nalg'ada o'tirgan Amin tongga yaqin qayerdandir azon ovozini eshitdi. Uyqusizlikdan shishgan ko'zlarini va o'rindiqda botib ketgan yelkasini ishqalagancha eshik yo-

niga bordi. Qarshisida go'zal bir masjid ko'rindi. Qalbni allalab o'ziga chorlayotgan azon ovozi shundan kelmoqda.

Bu oddiy ohang emas. Bu uning yuragida ona duolarining uyg'onayotgan ovozi edi. Aminning ko'z oldiga qo'llari bilan yuzini silab duo qilayotgan onasi keldi. Ona ovozi quloqlari ostida sado berdi. Masjid tomon bir kuch uni chorlardi. Bu oddiy chorlov emasdi. Bu onasi aytgan duoning o'zi edi.

Yuragida uzilgan ip qayta bog'langandek bo'ldi. Oyoqlari masjid ostonasini hatladi. Ichkariga kirishi bilan vaqt to'xtadi. Ana shunda Amin beixtiyor muazzinga qo'shilib baralla azon aytdi. Uning ovozi go'zal edi. Masjid ahli hayratga g'arq bo'ldi. Masjid ahli tinglashga rag'bat qildi. Muazzin to'xtaganda ham Amin ko'zlari yumuq holda azon aytardi.

Quloqlari ostida esa ona duosi jaranglaydi: “Ollohim, o'g'limni o'z yo'lingdan toydirma! Uning qalbiga haqiqatning nolasidan giryon bo'lib tebranadigan oshiqlik berki, zulmatda qolsa shu nola sabab yo'lini topsin, omin”.

Bu Aminning o'zligiga qaytishi edi...

Keyin ustozlar, universitet, magistratura...

Amin olti yil ichida qayta tug'ildi, go'yo. Uni dard yuksaltirdi, cho'qqiga olib chiqdi. Og'riq nurga aylanib, tavba ovozigacha qanot bo'ldi. Uning ovozi, uning ohangi o'z iztirobidan bunyod bo'lgan bir san'atga aylandi. Zulmatda qolgan qalbini ona duosi yoritdi. Ishli bo'ldi, ustoz bo'ldi, bir xayriya tashkilotiga asos ham soldi.

Har yili yozda vatanga qaytib bir muddat xotiralar makoni bo'lgan ota uyida turib ketadi. Chunki onasi yozda vafot etgan. Ko'plab masjidlar uni ishga chorlaydi. Ammo Amin faqat o'z mahallasidagi masjidda xizmat qiladi.

* * *

– Amin taqdir, hoy Amin taqdir, shoshmang, bir qarang, iltimos.

Amin ortidan halloslab yugurib kelgan ozg'in, ammo chayir jussali odamga va uning oldidagi novcha bolaga ajablanib qaradi.

– Assalomu alaykum, labbay, taqdir?

– Vaalaykum assalom. Ming bor uzr, hazrat. Shu bolamni duo qiling. Besh qizdan so'ng topgan yagona o'g'lim. Onasidan duo oldik, endi Sizdan olaylik... O'zimning onam bolaligimda o'tib ketgan. Duo olishga fursatim bo'lmagan. Ammo... Sizning gaplaringizdan so'ng har kuni ayolim qizlarim va o'g'limni duo qilayapti. Kamida sizdek ilmi yigit bo'lsin, – dedi iltijo bilan chayir jussali kishi.

Aminning ko'zlarida shabnam donachalaridek yosh sizdi. Cho'kkalab novcha bolaning boshini silab dedi:

– Shukr, kimningdir chiroyli duo olishiga sabab bo'libmiz. Bizdan duoga hojat qolmabdi. Sizga ona duosi kifoya, inim. Biz ham oddiy insonmiz. Yaratuvchining quli. Ammo shunday ishga vosita qilgani uchun Robbinga shukr aytaman. Keling, haqqingizga onamdan qolgan duoni qilay, Ollohim bu bandangni o'z yo'lingdan toydirma! Uning qalbiga haqiqatning nolasidan giryon bo'lib tebranadigan oshiqlik berki, zulmatda qolsa shu nola sabab yo'lini topsin, omin.

– E, rahmat taqdir, qulluq, ming marta qulluq. Baraka toping, ko'nglim ko'tarildi. Onangiz juda chiroyli duo qilgan ekan, – dedi mamnun bo'lib bolaning otasi. – Haligi... yana bir narsa so'rasam maylimi?.. Agar juda shoshayotgan bo'lsangiz so'ramay qo'ya qolay.

Barcha yuklarini mashinaga ortib bo'lgan Amin sokin holatda dedi:

– So'rang, bemalol.

– Mahallada shov-shuv bo'lgan haligi gapda bu. Nega 35 yoshgacha oila qurmadingiz? Albatta, sizga munosib qiz topilardi-ku. Yana nega ketayapsiz, – dedi shundan so'ng bolaning otasi.

Amin tabbasum bilan javob qildi:

– Chunki haligacha onamdek duo qiladigan qizni uchratmadim. Kelasi yoz qaytaman. Yaxshi kunlarda ko'rishaylik, amaki, salomat bo'ling...

Amin o'tirgan uchoq musaffo osmon uzra qanot qoqayotgan Humo qush singari viqorli uchardi. Xuddi qanotlari ostida bir polaponini olib uchayotgan kabi. Uchoq oynasidan pastda suzayotgan bulutlarga termulib ketayotgan Aminning xayolida shu so'zlar aks-sado berdi: “Ayollarga ayting. Farzandlarini ko'p duo qilsin. Ularni shu duolar asraydi”.

Zulayho TO'RAYEVA,

“Turon” universiteti

Arab tili fakulteti 2-kurs talabasi

Hugi Erskin Londondagi eng chiroyli janoblardan biri. Sochi jigarrang va jingalak, ko'zlari moviyrang, chehrasi jozibali. Do'stlari ko'p. Ammo unchalik ham boy emas. Otasi armiyada ofitser edi. U vafot etgan. Endi Hugi faqat otasining qilichi va bir nechta kitoblariga ega, biroq puli yo'q.

Millioner model

Oskar Uayld

Hikoya

Hugi Erskin bir qancha ishda o'zi ni sinab ko'rdi. Choy savdogari bo'lib choy sotdi, vino savdogari bo'lib vino sotdi. Lekin kambag'al Hugining hech narsada omadi chopmadi. U Laura Merton ismli armiya ofitserining qizini sevdi. Lauraning ham unda ko'ngli bor edi, biroq otasi uning Hugiga turmushga chiqishini xohlamasdi.

– Siz navqironsiz, – dedi polkovnik Merton Hugiga, – lekin pulingiz yo'q. Qizim puli yo'q odamga turmushga chiqolmaydi. Agar sizda o'n ming funt bo'lsa, qizimga uylanishingiz mumkin.

Hugining o'n ming tugul, hatto o'n funti ham yo'q edi. Keksa xolasi unga haftada to'rt yoki besh funt berardi. Bugun cho'ntagida faqat bir funt bor. Hugi deyarli nochor edi. Alan Trevor ismli do'sti bor edi. U yaxshi rassom va ancha mashhur bo'lib, odamlar uning studiyasiga kelib, portretlarini chizdirardi. Alanning rasmlari juda qimmat. Sababi, u faqat boy odamlar uchun rasm chizardi.

Hugi Alanning studiyasiga kelgani-da u bir rasm ustida ishlayotgan edi.

– Bu haqda nima deb o'ylaysiz? – so'radi Alan Trevor. – Mening modelim haqida nima deb o'ylaysiz? – ta'kidladi yana bir bor.

Hugi rasmga qaradi. Bu kekxa faqirning rasmi edi. Alan studiyaning burchagida turgan odamni tasvirlayotgandi. Model – yirtilgan kiyimlardagi yoshi ulug' kishi. Yuzi ma'yus, qayg'uga to'la. Bir qo'li bilan boshidagi qalpoqchani ushlab turar, boshqa qo'li-da esa tayoq bor edi.

– Modelim, – dedi Alan. – Bunday ajoyib faqirga hech ko'zingiz tushganmi?

– Yomon ahvoldagi kekxa kishi, – dedi Hugi. – Qanday qayg'uli ko'rindadi.

– Albatta, men faqirga xursand ko'rinish berishni xohlamayman.

– Model studiyada turganligi uchun qancha pul oladi?

– Unchalik ko'p emas, – dedi Alan. – Bir soatiga bir shilling.

– Rasmni sotganingizda qancha pul olasiz?

– Bu rasm uchun ikki ming funt olaman.

– Siz boy odamsiz. Modelga ham pul berish kerak deb o'ylayman, – dedi Hugi.

– Bema'nilik... bema'nilik! – dedi Alan. – Rassom bo'lish qiyin, faqir

bo'lish esa oson. Hamma ham rassom bo'la olmaydi, lekin hamma faqirlik qilishi mumkin.

– Ko'p odamlar boy va mashhur rassom bo'lishni xohlaydi, – dedi Hugi. – Hech kim kambag'al bo'lishni xohlamaydi. Siz, rassomlar juda yomonsiz.

Alan Trevor kuldi:

– Bandman, o'tir va valaqlashni to'xtat.

Shu payt xizmatkor kirib keldi:

– Janob, tashqarida bir odam sizga portretini chizdirish uchun kelibdi. U bilan gaplasholasizmi?

– Hech qayerga ketib qolmang, – dedi Alan Hugiga. – Bir zumda qaytaman.

Alan xonani tark etdi. Keksa faqir stulga o'tirib dam oldi. Qalpog'i hali ham qo'lida turardi. Shunchalik ma'yus ko'rinishidan Hugining unga rahmi keldi. Cho'ntagiga qo'lini soldi. Afsuski, cho'ntagida faqat bir funt bor va bu uning oxirgi puli edi.

“Bu pul unga ham kerak”, deb o'yladi Hugi.

U xonani kesib o'tib, funtni faqir kishining qalpog'iga soldi. Keksa kishi hayron bo'ldi. Pulni ko'rib tabassum qildi:

– Rahmat, janob, juda minnatdorman.

Alan Trevor studiyaga qaytib kelgach, Hugi ketdi. U Laura bilan uchrashdi va kekxa kishiga yordam bergani haqida aytdi.

– Barcha pulingni berib yubordingmi? – so'radi Laura. – Bu juda ahmoqona ish. Otam hech qachon mening ahmoq odamga turmushga chiqishimga ruxsat bermaydi. Sen ahmoqsan, lekin mehribonsan va men seni yaxshi ko'raman.

Kechasi Hugi Alanni klublardan birida uchratdi. U xursand ko'rindi.

– O'sha rasmni tugatdim, – dedi Alan. – Modelim senga qiziqib ko'p savollar berdi.

– Yomon holatdagi kekxa kishi, – dedi Hugi. – Qani endi unga yordam berolsam. U sendan men haqimda nimalarni so'radi?

– Sen haqingda hamma narsani bilishni xohladi.

– Unga nima deding?

– Hamma narsani aytdim. Laura haqida, otasi haqida aytdim. Laura-ga uylanishni xohlayotganingni, lekin



puling yo'qligini ham aytdim.

– Alan! – dedi Hugi g'azab bilan.

– Sen mening shaxsiy ishlarim haqida unga hamma narsani aytdingmi?

– G'azablanma, – dedi Alan. – Sen kimning rasmini chizayotganimni bilmasding. Men uni baron fon Hausberg uchun chizganman. U mening modelim edi, Yevropaning eng boy odamlaridan biri. Baronning o'zi kekxa faqirga o'xshab kiyindi.

– Baron fon Hausberg! – deb haya-jon bilan baqirdi Hugi. – Demak, o'sha kekxa faqir baron edimi?

– Ha, – dedi Alan.

– Lekin men unga bir funt berdim, – dedi Hugi. – Endi o'zimni ahmoqona his qilyapman.

– Sen unga bir funt berdingmi? – so'radi Alan. – Bu men eshitganlarim ichida eng kulgilisi.

Alan Trevor kulishdan to'xtay olmadi. Hugi Erskin uyiga qaytib ketdi. O'zini ahmoqdek his qildi, axir u oxirgi funtni millionerga bergandi. Lauraning otasi bu haqda eshitadi. Polkovnik hech qachon qizining ahmoq bir odamga turmushga chiqishiga ruxsat bermaydi...

Ertasi kuni Hugi Erskinning uyiga mehmon keldi. Hugi uni tanimadi.

– Qanday yordam bera olishim mumkin? – so'radi u.

– Men baron fon Hausberg nomidan keldim, – dedi mehmon.

– Baron fon Hausberg! – dedi Hugi Erskin. – Uni kecha uchratganimda tanimagan edim. Undan uzr so'rashni xohlayman. Odobsizlik qildim.

Mehmon tabassum qildi: siz baronga nisbatan odobsizlik qilmadingiz. Baron sizga bu narsani berishni buyurdi.

U Hugiga bir konvert berdi. Konvertda shunday yozilgandi: “Nikoh sovg'asi: Hugi Erskin va Laura Merton uchun, kekxa faqirdan”. Ichida o'n ming funtlik chek bor edi.

**ToshDO'TAU talabasi
Elgiza SOBIROVA tarjimai.**

Qishloq sog'inchi

Meni ulg'aytirgan aslida o'sha – Anori g'arq pishgan bog'-u dalalar. Shaharga yo'l oldim, qo'llarin silkilab Kuzatib qolishdi mitti bolalar.

Quyosh barchaga teng nur sochar emish, Bu gapning barchasi yolg'onmi deyman. Aslida onamning mehri-ku cheksiz, Quyosh onamdan nur olganmi deyman.

Anor donasidek to'kildi toqat, Mezon bog'laridek huvillar ko'nglim. Kun kelib qishloqqa qaytaman, faqat Sen meni jilmayib kutib ol, singlim!

Bezibman yo'li keng, ko'ngillari tor Shahar go'zalligi, tarovatidan. Aslida men uchun azizroq ne bor Ona qishlog'imning halovatidan?!...

Meni ulg'aytirgan aslida o'sha – Otam ko'nglidek oq paxta dalalar. Qaytishim hali ham kutadi intiq, Paxtazor dalalar, mitti bolalar!..

Degaylar

Lahzalar soatga aylanaverar, Soatlar toqatga aylanaverar, Toqatlar rohatga aylanaverar, Sabrning oxiri oltin degaylar.

Har o'tgan kuningda bo'lmasa samar, Yuz yillik umringdan qolmagay asar. Hech kimni ayamas qazoyi qadar, Kim keyin, yana kim oldin degaylar.

Qalbimga nimadir quyilaverar, Yomg'irlar menga she'r uyilaverar. Ismsiz qayg'ular uyilaverar, Kim tinglar yuraging dodin degaylar.

Jim ko'nib ketishga ko'nmaydi ko'ngil, Nishonsiz o'tishga ko'nmaydi ko'ngil, Sayroqi bulbuldek tinmaydi ko'ngil, To bizni shoir yo oqin degaylar.

**Feruza RAHMATOVA,
TDSHU talabasi**



Voqeyiy hikoya

Bir paytlar bu uyda tugʻilgan kunlar boshqacha oʻtardi. Ish qanchalik koʻp boʻlmasin, ota, ona va bola bir kunni faqat bir-biriga bagʻishlashardi. Kulgi, oilaviy oʻyinlar, eski suratlarni tomosha qilish, otaning hazillari, ona pishirgan shirinliklar... Bu kun bolakay uchun eng baxtli kun edi. Ammo anʼana buzilganiga ikki yil boʻldi. Onasi endi ular bilan birga emas.

Eng yaxshi sovgʻa

Shundan beri bolakay goʻyo yarmi yoʻq odamdek yashaydi. Kuladi, gapiradi, lekin yuragidagi boʻshliqni hech narsa toʻldirolmaydi. Tugʻilgan kuni yaqinlashgani sari bu boʻshliq yanada ogʻirlashdi. Otasi oʻgʻli koʻzida soʻnib borayotgan quvonch, sukut ortiga yashiringan sogʻinchni sezib yurardi. Shuning uchun bu safar qaror qildi: bu kunni imkon qadar yorugʻ qilish kerak. Olgan sovgʻasini ham oʻgʻli koʻrib qolmasligi uchun shkafning ichiga, kiyimlar orasiga yashirdi.

Ertalabdan hovlini supurishdi. Uyni yigʻishtirib, dasturxonni onasi yoqtiradigandek qilib bezadi. Qarindoshlari va bolaning endigina maktabga chiqqan oʻrtoqlarini chaqirdi. Hamma: “Uy yana bolalar kulgisi bilan toʻlsin!” deb niyat qildi. Ota bilan oʻgʻil esa eski odatni buzmay bir xil kiyim kiyishdi. Goʻyo hozir onasi chiqib keladigandek...

Bazmda hamma suhbatga berilgan pallada otaning birdan koʻngli gʻash boʻla boshladi, toʻsatdan boshi aylanib koʻz oldi qorongʻilashdi-da yiqildi. Ayolidan soʻng sogʻligini yoʻqotganini sezib yursa-da, hech kimga bildirmayotgandi. Hamma uning yoniga yugurdi. Kimdir tez yordam chaqirdi, kimdir suv olib keldi. Bir necha daqiqadan soʻng tez yordam mashinasi hovliga kirdi. Bu paytda bolakay oʻrtoqlari bilan yashirinmachoq oʻynayotgandi. Yashirinib turgan joyida birdan sirena ovozi eshitdi. Yuragi gʻash tortdi. Odamlar orasidan otasini qidirdi. Tez yordam mashinasi hovlidan chiqib ketayotganda bola mashina orqasidan yugurdi, lekin yetolmadi. Ovozi titrab: “Dada, men sizni yaxshi koʻraman...” deb baqirdi. Mashina uzoqlashdi. Shovqin-suron birdan begona boʻlib qoldi.

Uy ichi sovuqdek tuyuldi. Bola xonasiga kirdi-da, bazm kiyimini ilmoqchi boʻlib shkafni ochdi. Kiyimlar orasida sovgʻa turardi. Qaltiragan qoʻllari bilan uni ocharkan birdan gʻalati boʻlib ketdi. Ichida otasi va onasi bilan tushgan surat, u juda yaxshi koʻradigan shirinlik, oʻyinchoq mashina turardi. Bola suratni mitti qoʻllari bilan tutgancha jim qoldi. Bir vaqtlar quvonchdan porlagan koʻzlardan yosh tomardi. Hozir unga oʻzi yoqtiradigan shirinlik ham, oʻyinchoq ham qiziqmasdi. Eng yaxshi sovgʻa – birga boʻlgan oilasi ekanligini tushundi...

Dilnura BOʻRIYEVA,
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi
11-sinf oʻquvchisi

Abduvaxitova Indira Nurullayevnaning 14.00.21 – Stomatologiya hamda 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi boʻyicha “Gerpes bilan bogʻliq koʻp shaklli eksudativ eritema diagnostikasi, davolash va profilaktik chora-tadbirlarini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari boʻyicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-mart kuni soat 12:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur koʻchasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66; e-mail: sammi@sammu.uz

Toxtayev Gʻayratillo Shuxratillo oʻgʻlining 14.00.21 – Stomatologiya hamda 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi boʻyicha “Ogʻiz boʻshligʻi shil-liq qavati poʻrsildoq yara kasalligini erta tashxislash, oldini olish va kompleks davolashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari boʻyicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur koʻchasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-07-66; e-mail: sammi@sammu.uz

Umataliyeva Kamila Taxiroyvnaning 13.00.05 – Kasb-hunar taʼlimi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi boʻyicha “Dual taʼlim sharoitida pedagog-murabbiylar-ni kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik taʼminoti-ni takomillashtirish(Malaka oshirish tizimi misolida)” mavzusidagi(pedagogika fanlari boʻyicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy taʼlimni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12. Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

Axmatova Gulruh Rahmatovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi boʻyicha “Inson papilloma virusi bilan bogʻliq servikal kasalliklarda si-tokinlarning istiqbolli qiymati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari boʻyicha) falsafa dok-tori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiya-si Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-mart kuni soat 12:30 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo Gʻulomov koʻchasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Kelsang, nigohimga muhabbat insa...

* * *

Juda yaxshimasman... va juda yomon,
Kelsang, nigohimga muhabbat insa...
Tushun, axir oʻzim oʻylari siniq,
Har on sujudiga toʻkilgan kimsa!

Kimman? Koʻzlaringdan uchayotgan qush,
Oʻngim tushlarimmi? Yo hushim? Kimsan?
Uchar gilam emas, uchar ishq bergan,
Jinsan!

Yana, dunyoyimni qarolagan sen...
U men – hammasiga koʻzini yumgan.
Soʻnggi sarob boʻlgan soʻngsiz ishq va
Soʻngra gʻururini yoʻqlikka koʻmgan!

Juda yaxshimasman... va juda yomon...

* * *

Xayol chalkash... hislar gumroh,
Isyon desam, isyon emas.
Jim turmoqlik qanday azob,
E voh!

Dod deyolmas... koʻzlar soʻqir,
Sen koʻr boʻlsang, men koʻr boʻlsam.
Koʻzlardagi ifoda-yu oh-u dardni,
Ayt, kim oʻqir?

Bor vujudga toʻlgan kadar,
Toʻlgan gʻubor, zulmatdamiz.
Ketib borar yoʻlimiz ham ichimizdek,
Qorongʻi jar!

Naqadarmiz, naqadarmiz,
Eh ne qadar, bilganimiz bari riyo.
Koʻz yummoqqa majburlikdan koʻrganimiz,
Har safar...

Tildan chiqqan dilga enmas,
Eshitmaydi – kar quloqlar,
Gʻaflat otli oʻrgimchakning
toʻridamiz, aybimiz bor,
Kechirilmas!

Xayol chalkash... hislar gumroh,
Isyon desam, isyon emas.
Jim turmoqlik qanday azob,
E voh!

* * *

Qaysarligim daydi yellarga,
Sovurmoqqa shaylandim va lek,
Daxli bordir unsiz yillarga,
Alalxusus, boʻgʻzimda hadik.

Sochlarimga tegmas gard, hasrat,
Qaynoq taftim sarsarligimdir.
Tiriksan chun – sevgim-la faqat,
Ishqim mening qaysarligimdir!

* * *

Tinglasang...
Jilmaysam shodon.
Baxtlarga oʻralgan,
Shodlikday yangrasam...
Bir yonib oʻchguvchi,
Uchqunday koʻzlaring aksida.
Porlasam... termulsang,
jimgina termulsang,
Va singsam koʻzlaring qaʼriga.
Shunday qaʼr boʻlsinki,
Chiqmasam, chiqolmasam.
Sen ket demasang...
Men ketolmasam.
Qaniydi!

* * *

Porloq yuzli nurafshon,
Osmondek u bepoyon.
Gullari anbarafshon,
Kunga oʻxshagim kelar!

Men uchun kun – saxovat,
Saxovat – chinakam baxt.
Bu baxt ichra men faqat,
Kunga oʻxshagim kelar!

Lobar DAVRONOVA,
ToshDOʻTAU talabasi

Pashazade Sahib Agʻaverdi oʻgʻlining 17.00.02 – Musiqi sanʼati ixtisosligi boʻyicha “Tor uchun yaratilgan asarlarda mugʻomdan foydalanish xususiyatlari” mavzusidagi(sanʼatshunoslik fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqa sanʼati instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mustaqillik shohkoʻchasi, 31-uy.
Tel/faks: (71) 237-35-75; veb-sayt: www.uzmmsi.uz;
e-mail: devonxona@uzmmsi.uz; e-pochta: devonxona@uzmmsi.uz

Djurayeva Nozima Orifovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosligi boʻyicha “Koʻkrak bezi saratonida kardiotsik potentsialga kimyoterapiyaning taʼsirini immunologik baholash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo Gʻulomov koʻchasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Abdukadirova Munira Kabilovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.09 – Pediatriya ixtisosliklari boʻyicha “Yangi tugʻilgan chaqaloqlarda homila ichi infeksiyalari rivojlanishining kliniko-immunogenetik aspektlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12. Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo Gʻulomov koʻchasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Tuxtayeva Umida Dilmurodovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.09 – Pediatriya ixtisosliklari boʻyicha “Yangi tugʻilgan chaqaloqlarda erta neonatal sepsis rivojlanishining klinik va immunogenetik jihatlarini” mavzusidagi(tibbiyot fanlari boʻyicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 16-mart kuni soat 12:20 dagi majlisida boʻlib oʻtadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo Gʻulomov koʻchasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz



Mamasoliyev Shoxruxbek Mamarasul o‘g‘lining 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo‘yicha “Jinsga bog‘liq metabolik sindromli yoshlarda uyquning buzilish xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (65) 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Ergashev Nodir Erniyazovichning 13.00.07 – Ta‘limda menejment ixtisosligi bo‘yicha “Kasbiy ta‘lim tashkilotlarida zamonaviy boshqaruv modellari asosida ta‘lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Kasbiy ta‘limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

Yadgarova Dinara Baxodirovnaning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi hamda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha “Sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlarda jismoniy tarbiya vositalari orqali talabalarining valeologik madaniyatini shakllantirish mexanizmi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-mart kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100202, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, Olimpiya shaharchasi.
Tel/faks: (71) 242-30-87; veb-sayt: https://uzjtsiti.uz/; e-mail: jtsiti@sport.uz

Quldoshev G‘anijon Namozovichning 14.00.27 – Xirurgiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “Operatsiyadan keyingi ventral churrasi bo‘lgan bemorlarni kasallikning patogenetik xususiyatlarini hisobga olgan holda davolash taktikasini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (65) 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Hamdamov Ulug‘bek Ro‘ziyevichning 14.00.27 – Xirurgiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “O‘yoq venoz trofik yaralarini kompleks davolashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-mart kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (65) 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Maxmanazarov Orifjon Mirzonazar o‘g‘lining 14.00.27 – Xirurgiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha “O‘tkir ichak tutilishining jigar surunkali diffuz kasalliklari bilan birgalikda kechishida tashxislash va davolash natijalarini takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (65) 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Rizayeva Malika Jamolovnaning 14.00.05 – Ichki kasalliklar hamda 14.00.29 – Gematologiya va transfuziologiya ixtisosliklari bo‘yicha “Persistrovchi bo‘lma-cha fibrillatsiyasi bilan kechuvchi yurak ishemik kasalligida gemostaz tizimining diagnostik va prognostik ahamiyati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-mart kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Yusupov Jasur Tolibovichning 14.00.37 – Anesteziologiya va reanimatologiya ixtisosligi bo‘yicha “Aortokoronar shuntlashdan keyingi bemorlarda intensiv terapiyani takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Bolalar milliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.07.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100171, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Parkent ko‘chasi, 294-uy.
Tel/faks: (55) 503-00-03; e-mail: info@bmtm.uz

Muxidova Gulmira Xasanovnaning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo‘yicha “Kompyuterga yuqori darajada tobe bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning antropometrik ko‘rsatkichlarining morfofiziologik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.
Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Inamov Bekzod Nizamovichning 06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo‘yicha “Raqamli texnologiyalar asosida sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish uslubiyatini takomillashtirish” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 17-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag_info@edu.uz

Ismoilov Rajabboy Maxmayusuf o‘g‘lining 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha “Qo‘shma kasalliklar fonidagi aterosklerozda tizimli yallig‘lanishning roli va uni tuzatish imkoniyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammi.uz

Ergasheva Nargiza Xoshimjonovnaning 06.01.08 – O‘simlikshunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Ekish muddati va me‘yorining moyli kungaboqar navlarining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta‘siri(Toshkent viloyatining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111218, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Urazmetov Kaxramon Karimbayevichning 06.01.08 – O‘simlikshunoslik ixtisosligi bo‘yicha “Respublikamizning turli tuproq iqlim sharoitida sholi yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111218, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

Quziyev Farxod Serabovichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik ixtisosligi bo‘yicha “Buxoro viloyatining sho‘rlangan tuproqlari sharoitida g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish usulining samaradorligi” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-mart kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUEAITI ko‘chasi.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru

Osmanov Shokirjon Zokirjon o‘g‘lining 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo‘yicha “O‘tloqi bo‘z tuproqlar unumdorligi va g‘o‘za hosildorligiga siderat ekinlar ta‘siri(Andijon viloyati misolida)” mavzusidagi(qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-mart kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Oyjamol MFY, Oliygo‘h ko‘chasi, 1-uy.
Tel/faks: (74) 224-02-82, 224-02-62; e-mail: andqxai@exat.uz

Xaldarbekov Madamin Karimjanovichning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo‘yicha “Tug‘ma bulliyoz epidermolizli bemorlarda polixromatik polyarizatsiyalangan yorug‘likdan foydalanishni asoslash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 24-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko‘chasi, 3-uy.
Tel/faks: (71) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

Raximov Jaxongir Xotamovichning 14.00.04 – Otorinolarinologiya hamda 14.00.14 – Onkologiya ixtisosliklari bo‘yicha “Hiqildoq raki bilan og‘rigan bemorlarda tashxislash va ovoz funksiyasining reabilitatsiyasini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: ilmiyprorektori@sammu.uz

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti jamoasi Ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Nargiza Nurmuxamedovaga otasi
Saydilla RASULOVning
vafoti munosabati bilan ta‘ziya izhor etadi.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti jamoasi Tarix fakulteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti Ravshan Siddiqovga otasi
Berdimurod otaning
vafoti munosabati bilan ta‘ziya izhor etadi.



MUKARRAMA TURG'UNBOYEVA!

Mukarrama Turg'unboyeva o'zbek san'atida o'chmas iz qoldirgan fenomen edi. Uning ijodi o'zbek raqsining yuksak bosqichga chiqishiga asos bo'lgan. Raqqosa o'zidan katta maktab va ko'plab iste'dodli shogirdlarni xalqimizga meros qilib qoldirdi. Ular bugun ustoz maqomida bo'lib, ustozlarining ezgu ishlarini kelajak avlodga yetkazib kelmoqdalar. Bu esa asrlar davomida Mukarrama xonim ijodining avloddan avlodga yetib borishiga xizmat qiladi. Mukarrama Turg'unboyevani yaqindan bilgan, zamondosh bo'lgan shogirdlarining xotiralarini tinglashga muvaffaq bo'ldik.

KO'Z O'NGIMDA GAVDALANEVERADI

Xayrulla LUTFULLAYEV,
O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti:

– Shu kungacha nimaga erishgan bo'lsam, barchasi Mukarrama Turg'unboyeva tufayli bo'lgan. Talabalik paytim u kishi meni “Bahor” ansambliga taklif qildi. Ham o'qib, ham ansamblda ishlab yurganman.

Mukarrama opa ishda ham, uyda ham, ko'chada ham onalik vazifasini bajargan. Yosh-u qari bo'lsin, katta-yu kichik bo'lsin, barchadan yordamini ayamagan. Shuning uchun ham butun xalqdan tortib, hatto rahbarlar ham Mukarrama opani e'zozlagan. U kishidan olgan o'rnaklarimiz bizni insoniylik, yurtga muhabbatli bo'lishga undagan. Ustozning mehnati, sa'y-harakati bilan butun dunyoni kezib chiqqanmiz. “Bahor” ansambli o'zining san'ati, milliligidimizni raqs orqali dunyoga ko'z-ko'z qilgan.

“Bahor” ansamblida 60 nafar inson ishlardi. Opa barchasining kamchiligi, muammosini bilardi. Kimdir biror hojatini aytsa, darrov bajarardi. Hattoki, rahbarlar ham Mukarrama opaning so'zini ikki qilmagan. Faqat san'atda emas, balki hayotda ham yaqin maslakdosh, ustoz, ona edi.

“Tanovar” ustoz Boborahim Mirzayev davrida ijro qilina boshlangan. Rahmatli Tavakkal Qodirovning ijrosi ham o'zgacha bo'lgan. Ijrosida mungni, dardni his qilish mumkin. Avvaliga “Tanovar”ni Baxtiyor Yo'ldoshev ijro etardi. Ustozning vafotidan keyin, men kuylaydigan bo'ldim. Qayerda konsert qo'yamaylik, hamma opaning “Tanovar”ga raqs tushishini poylab o'tirardi. Mening ijromda yorga intilish kayfiyati bor.

Umuman olganda, har bir san'atkorning o'ziga yarasha dili, fikri, dardi bor. Men Mukarrama opaning yurishi, qo'l harakati va ko'z qarashlaridan zavqlanib kuylardim.

Hozirgacha qayerda “Tanovar”ni ijro etarkanman, kim raqsqa tushishidan qat'i nazar, ko'z o'ngimda Mukarrama Turg'unboyeva gavdalanaveradi. Shu mahal ko'nglimda ichki tug'yon junbushga keladi. Bu esa ijromdan, ko'zimdan sezilib turadi.

Ziyoda MADRAHIMOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist va Qoraqalpog'iston xalq artisti, Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli badiiy rahbari:

– Moskvadagi Chaykovskiy zalida so'nggi bor sahnaga chiqdi. “Tanovar”ni ijro etishda yoshi kattaligi tufayli, oldingidek o'tirishlar, murakkab harakatlarni bajara olmasdi. Sahnada payti yuragi xuruj qilib qoldi. Shunga qaramay raqsni davom ettirdi. Raqsni ijro qilib bo'lgach, sahnaning ortiga o'tib, hushdan ketib yiqildi. Hamma yugurib qolgan. Kreml shifoxonasidan shifokorlar kelishdi. Birinchi

Gulchehra JAMILOVA,
O'zbekiston xalq artisti:

– Xoreografiya bilim yurtida o'qib yurgan kezlirim Moskvada o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi bo'lishi e'lon qilindi. Mukarrama opa bilim yurtiga kelib, ommaviy sahnalarni ijro etish uchun yana olti qizni tanlab oldi. Hali birinchi kurs bo'lishimga qaramasdan, meni ham tanlab oldi va uchta raqs dasturiga kiritdi. Shunday qilib, Moskvaga bordik.


O'ZBEK AYOLI TIMSOLI

Mening faoliyatim “Bahor” bilan bog'landi. Mukarrama opa katta miqyosda konsert beradigan bo'lsa, xoreografiya bilim yurti o'quvchilari, jumladan meni ham chaqirib turardi.

“Bahor”da uch yilgina ishladim. Lekin Mukarrama Turg'unboyeva haqida olam-olam xotiralar qolgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Opa chinakam o'zbek ayoli timsoli edi. Har bir raqqosaga bir xil munosabatda bo'lar, birini biridan ortiq yo kam ko'rmasdi. Hammamizni yaxshi ko'rardi. Gastrol safarlariga chiqqan paytimiz, raqs tushish bilan bir qatorda, konsertga boshlovchilik qilish vazifasini topshirgandi. U paytlar har bir raqs, muallif, bastakorning ism-familiyasi, olgan unvoni yoddan aytilardi. Hozirgidek qog'ozga qarashlar qayda edi?!

Afsuski, bu ansamblda ko'p yil ishlash menga nasib qilmadi. Negaki, repetitsiya jarayonida oyog'im qattiq lat yeb qoldi. Bitta konsertda tinmasdan 7-8 ta raqsni ijro etardik. Raqsdan ketaman deganimda, Mukarrama opa meni olib qolishga juda qattiq harakat qildi. Biroq majburan raqsni tark etdim. Tarozining pallasi drama to'garagini bosib ketgandi.

Lekin yoshlikda ham raqs, ham dramaga qatnashganim menga anchagina foyda qildi. Shu tufayli ma'lum muddat “Bahor”da ishlab, Mukarrama Turg'unboyevaga shogird bo'lish baxtiga muyassar bo'lganimdan hamisha minnatdorman. O'ylaymanki, ularning maktabi kelajak avlodga yetib borib, asl san'atimiz yanada yuksaladi.



“MUNOJOT”NI OLTI OY ISHLADIK

Ma'mura ERGASHEVA,
O'zbekiston xalq artisti:

– Mukarrama opani ilk bor bolaligimda ko'rganman. O'shanda onamga “Katta bo'lsa, qizingni ansamblimga olaman. U “Bahor”ning tayyor “kadr”i” degan ekan. 18 yoshimda “Bahor”ga ishga kelganman.

Opa “Bu qiz solist bo'lmagandir. Lekin sendan ko'proq ko'ylak yirtgan, sahna changini yutgan, qishloq-qishloq yurib, xalqqa xizmat qilgan. Sendan bir yil avval kelgan bo'lsa-da, uni hurmat qilishing kerak. Jahonda o'z millatingni ko'rsatasan, sen orqali millatimiz asli namoyon bo'ladi. Hammaga ikki ko'z bilan qarasa, senga to'rtta ko'z bilan qaraydi”, deya nasihat qilardi.

Mukarrama opa “Tanovar”ni ardoqlardi. Hayoti davomida bu raqsni hech kimga bermagan. “Tanovar”ning raqsiga hali tayyor emassizlar”, derdi. Chunki bu raqs sir-asrorga boy. Hayotning achchiq-chuchugini totgan, yuragida dardi bo'lgan insongina raqsni anglab, xirom eta oladi. Hozir yoshgina qizlar ham ijro etayotgani jahlimni chiqaradi. Bu yosh bolalarning raqsi emas, bolalarga mutlaqo man etilishi kerak!

Ustozim “Munajat” raqsini ham mahorat bilan ijro etgan. Keyinchalik menga bu raqsni o'rgata boshladi. Yarim yil davomida, yakkama-yakka “Munajat”ni ishlaganmiz. Ustoz kiygan kostyumlarini menga ham berardi va o'zi bosh bo'lib, syomka ham qildirardi.

Har bir raqsning muallifi – xalq. Mukarrama opa xalqning ichida yurib, xilma-xil harakatlarni o'rganib, professional sahnaga joriy qilgan.

Har bir raqsning o'z rangi bor. Ansamblning tashrif qog'ozi bo'lgan “Bahor” valsini olaylik, musiqasida bulbulning xonishi, qizlarning egnidagi nafis pushti libos, o'rik gullashi – ustoz bu ranglarni uyg'unlashtirib, sahnaga chiqargan. “Rohat” raqsida 15 nafar qiz xilma-xil rangda chiqishi ham ularning kayfiyatini bildirib turardi.

MUKARRAMA Opaning SO'NGGI CHIQISHI

tekshiruvda shifokorlar “Infarktga chalingan. Bu hozir ro'y bermadi. 10 daqiqa oldin bo'lgan”, deyishdi. 10 daqiqa avval qayerda edi? SAHNADA! Ko'ryapsizmi, irodasi qanday kuchli bo'lgan! Butunitifoq xalq artisti bo'lgani uchun Kreml shifoxonasida davolanishga haqi bor edi. Ustozni zambilga solib olib ketishdi, biz ortidan yig'lab qoldik.

Shundan keyin unga sahnaga chiqish taqiqlandi. Lekin sahnasiz yashay olmasdi. Ko'p o'tmay Mukarrama opa olamdan o'tdi...

Ustozning vafotini xalqimiz ko'zyoshlar bilan qabul qildi. So'nggi yo'lga kuzatishda minglab odamlar ishtirok etgandi. Shunchalik ko'pligidan tobut atrofini askarlar o'rab olgan edi. Hamza teatridan to Chig'atoy qabristonigacha Mukarrama Turg'unboyevani kuzatib borishgandi.

Opamizdan keyin “Bahor” ansambliga u kishining shogirdlaridan biri – O'zbekiston xalq artisti Qunduz Mirkarimova, keyinchalik O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ravshanoy Sharipova, so'ngra O'zbekiston xalq artisti Ma'mura

Ergasheva rahbarlik qilishdi.

Ming afsuski, 2007-yili noma'lum sabablar bilan ansamblimiz faoliyati to'xtagan edi. Oradan vaqt o'tib, 2020-yil 4-fevral kuni davlatimiz rahbarining “Bahor” davlat raqs ansamblini qayta tashkil etish to'g'risida”gi farmoni bilan, “Bahor” ansambli faoliyati qayta tiklandi. Bu Mukarrama Turg'unboyeva ijodiga, ansamblimiz faoliyatiga berilgan yuksak rag'bat bo'ldi.

Oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz – Mukarrama opa maktabini yanada rivojlantirib, kelgusi avlodga yetkazish.

ToshDO'TAU talabasi
Ziyodulla HAMIDULLAYEV tayyorladi.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-6036. Tiraji-5500.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFON:

Tel/faks: (55) 512-01-50



“Marifat”dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

Ⓣ – tijorat belgisi.

Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100099 Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

